Jahonda urbanizatsiyasining asosiy xususiyatlari turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonning rivojlanishi, jumladan, O'zbekistonda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Respublikamiz qadimgi madaniyat va shaharsozlik markazlaridan hisoblansada, bu yerda shaharlar to'ri va tizimi, hozirgi zamon mazmunidagi urbanizatsiya jarayonlari so'nggi yillarda shakllangan. O'zbekiston Respublikasida shahar aholisi salmog'ining o'zgarib borishi ichki va tashqi omillar ta'sirida turli davrda turlicha kechgan. Bu, birinchidan, respublikaning “shahar” maqomiga bo'lgan munosabatiga, ishlab

chiqarish kuchlarining joylanish va rivojlanish xususiyatlariga hamda shaharlarni shakllantirish maqsadlariga bog'liq bo'lgan. Shu nuqtai nazardan urbanizatsiyaning ekstensiv va intensiv rivojlanish xususiyatini ko'rsatish mumkin. Intensiv rivojlanish ko'proq respublika iqtisodiyotida sanoat va boshqa qishloq xo'jaligi hisoblanmagan tarmoqlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, urbanizatsiyaning ekstensiv shakli ko'proq yangi shahar va shaharchalarning vujudga kelishi bilan yuz beradi. Aynan shu shakl respublika urbanizatsiyasining so'nggi yillardagi o'ziga xos to'liqlarini ifodalaydi. Respublikada shahar aholi punktlarining rivojlanish tarixi va urbanizatsiya jarayonlarining o'zgarish dinamikasini tadqiq qilish – hududlarning urbanistik salohiyatini aniqlash, yirik urbanistik tizimlar, shahar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi, shaharlarning funksional tarkibini zamonaviylashtirish va diversifikatsiya qilish, agroindustrial shaharchalar va qishloq urbanizatsiyasini joylarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish nuqtai nazardan dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Maqolada mazkur sohaga tegishli bo'lgan davlat qonunlari, respublika Prezidentining farmonlari va asarlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasining "Shaharsozlik kodeksi", shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida, xususan, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishda yaratilgan nazariy bilimlar, mazkur muammolar bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolaning metodologik asosini kompleks yondoshuv tashkil etib, bunda tarixiylik, statistik, geografik taqqoslash, tizim-tarkib, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot ishi maxsus ilmiy adabiyotlar, kartografik manbalar bilan bir qatorda "O'zshaharsozlikLITI", O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistondagi aksariyat "yangi" shaharlar o'tgan asrning 60-80-yillarida qo'riq yerlarni o'zlashtirish, turli qazilma boyliklardan foydalanish davriga to'g'ri kelgan. Bunday shaharlar ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Umuman olganda, shaharlarning tashkil topishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar natijasi bo'lib, ularning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonning demografik ko'rsatkichi, xususan, shahar

va shaharchalar soni oxirgi ellik yil davomida ikki marta keskin o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Masalan, 1970-yilda Butunittifoq aholi xatlovi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 42 ta shahar, 82 ta shaharcha mavjud bo'lib, ularda jami aholining 36,6 foizi yashagan. 1972-yilda aholi punktlariga shahar maqomini berish meyorini 10 mingdan 7 mingga tushirilishi munosabati bilan, ularning soni keskin ko'payib bordi [2]. Bu holatni respublikada urbanizatsiya rivojlanishining **birinchi to'liqini** deb hisoblash mumkin. Ta'kidlash joizki, shahar joylar sonining tez ko'payishi, ayniqsa 1975-1979-yillarda ko'zga tashlanadi. 1979-yilga kelib O'zbekistonda 90 ta shahar va 94 ta shaharchalar mavjud bo'lgan, ularga jami aholining 41,2 foizi to'g'ri kelgan.

E'tiborlisi shundaki, ko'rilayotgan davrda urbanizatsiyaning birinchi to'liqini asosan shaharlar hisobidan yuz bergan, shaharchalarning soni atigi 12 taga ko'paygan, xolos. Natijada, shahar va shaharchalar (shahar tipidagi posyolkalar) ning o'zaro nisbati 1970-yilda 1:1.95 ga teng bo'lgan holda, 1979-yilda 1:1.04 ni tashkil etgan. Demak aytish mumkinki, bu davr **ekstensiv urbanizatsiya** davri bo'lib, shaharlar to'ri va tarkibi yanada maydalashgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, to'r – bu shahar joylarning oddiy qatori, miqdoriy ko'rsatkich hisoblanadi. Ularning tarkibi esa ko'proq iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, shaharlarning iyerarxik tuzilishi yoki tizimini aks ettiradi. Binobarin, mamlakat va uning mintaqalarida shahar joylar, ularning "piramidasini" mukammalligi ayni vaqtda bu yerda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil etilganligidan ham guvohlik beradi. Urbanizatsiya jarayonining jadal rivojlanish holati taxminan 1985-yillargacha davom etgan. Bu davrda umumiy urbanizatsiya darajasi 42,0 foizgacha ko'tarilgan, undan keyingi yillarda esa shaharlar sonining ko'payish sur'ati ancha susaygan va asta-sekin barqarorlashgan. Masalan, O'zbekistonda shahar aholi punktlari soni 1989-2008-yillar, ya'ni 20 yil mobaynida atigi 5,4 foizga ko'paygan, xolos. Mazkur ko'payish shaharchalar hisobiga ro'y bergan bo'lib (16 taga ko'paygan), shaharlar sonida, aksincha, kamayish kuzatilgan (4 taga kamaygan). Qizig'i shundaki, bu davrda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi ko'tarilish o'rniga, pasayib borgan. Bunday urbanizatsion jarayon, odatda, kam uchraydigan holatdir. Qisqarish ko'proq Buxoro va Xorazm viloyatlariga to'g'ri keladi. Xususan, Xorazmda beshta shahar shaharcha maqomiga tushirilgan. Shu asosda ham shahar tipidagi posyolkalarning soni ortgan. Biroq, Buxoro, Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent viloyatlarida shaharchalar sonida ham qisqarish kuzatilgan [1].

2008-yil yanvar ma'lumotlariga ko'ra, shahar joylarning eng ko'p soni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Andijon viloyatlariga to'g'ri kelgan va urbanizatsiyaning geografik ko'rsatkichi, ya'ni shahar joylar zichligi mamlakat hududlarida o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Agar respublika bo'yicha 2000 kv. km. ga o'rtacha 1 ta shahar aholi punkti

to'g'ri kelgan bo'lsa, Toshkent, Andijon, Sirdaryo, Namangan va Farg'ona viloyatlarida bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lgan. Shu bilan birga maydonining yirikligi sababli Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro viloyatlarining shahar joylar bilan ta'minlanganlik darajasi ancha past. Bu holat mintaqalarning tabiiy sharoiti va ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi, ixtisoslashuvi va mujassamlashuvi bilan izohlanadi. Urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi ham ko'rilayotgan davrda turli darajadagi tarixiy-geografik xususiyatlarga ega.

Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta'sirida o'tgan asrning oxirgi choragida yangi shaharlarni vujudga kelishi keskin kamaydi. 2008-yil oxirida respublikada 120 ta shahar va 113 ta shaharchalar mavjud bo'lib, ularning 3/5 qismi kichik shaharlarga to'g'ri kelgan. O'rta bosqichdagi shaharlar esa jami shahar punktlarining 7,3 foizini tashkil etgan, xolos. Shaharlar o'rtasida tafovutlarning kattaligi, mamlakatimizda urbanizatsiyaning real holatini pastligidan dalolat beradi.

2008-yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami 27072,2 ming aholi mavjud bo'lib, shundan 9698,2 ming kishi shahar joylarda va 17374,0 ming nafari qishloq aholi punktlarida istiqomat qilgan. Respublika bo'yicha o'rtacha urbanizatsiya darajasi 35,8 foizni tashkil etgani holda, viloyatlar doirasida bu ko'rsatkich bir-biridan farqlanadi.

Iqtisodiy rayonlar miqyosida Toshkent 67,4 %, Quyi Amudaryo 35,6% va Zarafshon 34,7 % mintaqalari urbanizatsiyalashuv darajasining yuqoriligi bo'yicha birmuncha ajralib turgan. Bunga mazkur hududlarda Toshkent, Samarqand, Nukus, Buxoro, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Angren kabi yirik shaharlarning joylashganligi ta'sir etgan. Farg'ona va Mirzacho'l iqtisodiy rayonlarining ham qariyb 1/3 qism aholisini shaharliklar tashkil etgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan iborat Janubiy iqtisodiy rayon esa respublikada eng past (22,2 %) urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanib kelingan. Mamlakat aholisining 1/6 qismi ushbu mintaqa hissasiga to'g'ri kelgani xolda, jami shahar aholisining atigi 10,2 foizigina Janubiy O'zbekistonda yashagan.

2009-yilni respublikamizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilinishi va bu borada maxsus davlat dasturining ishlab chiqarilishi munosabati bilan mingga yaqin qishloq joylarga shaharcha maqomi berildi. Natijada, shaharchalar soni va umumiy urbanizatsiya darajasi keskin ko'tarilib ketdi. Bu holatni respublikada urbanizatsiya jarayonining **ikkinchi to'lqini** sifatida talqin qilish mumkin. Respublika mintaqalarida urbanizatsiya ko'rsatkichlarining o'zgarishi ancha katta davrlar oraliqida ko'rilgan. Bunday yondoshuv statistika qoidasiga ba'zan to'g'ri kelmaydi. Sababi, sodir bo'lgan o'zgarishlar butun ko'rilayotgan davr yillariga emas, uning ayrim yillarigagina tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston viloyatlarida urbanizatsiya

darajasining 2000-2009-yillardagi o'zgarishi to'liq bu davrda emas, balki o'sish so'nggi yilda, ya'ni 2009-yilda qayd etiladi [3].

O'z navbatida, Qishloq taraqqiyoti dasturi doirasida respublikaning 966 ta qishloq aholi punktlarini shaharchalar toifasiga o'tkazilganligi, respublika o'rtacha urbanizatsiya darajasining 2008-yildagi 35,8 foizdan 2009-yilda 51,7 foizga ko'tarilishiga olib keldi. Bunday "inqilobiy o'zgarish" ayniqsa Namangan, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida keskin ko'zga tashlanadi. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2025-yil 1-yanvar holatida mamlakat aholisining 51,0 foizi shahar punktlarida yashamoqda. Ya'ni, o'tgan 15 yil mobaynida respublika urbanizatsiya darajasi 0,7 foizga pasaygan. Bu holat qishloq aholi punktlarida aholi tabiiy harakatining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan shaharchalar to'ri mintaqalar doirasida tahlil qilinganda eng ko'p ulush Farg'ona vodiysi viloyatlari Farg'ona (196 ta), Namangan (109 ta) va Andijon (78 ta) ga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin. Bunga yangi shaharchalarga qo'yilgan aholi soni bilan bog'liq talablarga (u 2000 kishidan kam bo'lmasligi lozim) mazkur mintaqa qishloqlarining katta qismi javob berishi sabab bo'ldi. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysida azaldan sug'orma dehqonchilikning rivojlanganligi, yer resurslarining cheklanganligi, qolaversa, mahalliy aholining daryo va soylar havzasida zich, polosasimon joylashganligi tufayli yirik qishloq punktlari shakllangan.

Yangi tashkil etilgan shaharchalarning 23,4 foizi respublikaning eng qishloqlashgan hududi hisoblangan Janubiy O'zbekiston viloyatlarida joylashgan (Qashqadaryoda 119 ta va Surxondaryoda 107 ta). Ammo mintaqa tabiiy sharoiti va xo'jalik ixtisoslashuvidan kelib chiqib, shaharchalar tarkibining 84,0 foizini aholisi 5,0 ming kishigacha bo'lgan toifa tashkil etadi. Shuningdek, Toshkent va Samarqand viloyatlarining har birida taxminan 80 ga yaqin, Buxoroda 60 ta, Xorazmda 51 ta qishloqlar shaharcha maqomiga ega bo'ldi. Yangi shaharchalarning eng kam ulushi katta maydonlari cho'l mintaqasi bilan band, suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi (11 ta) va Navoiy (30 ta) viloyatlariga tegishli. Ushbu hududlar bilan birga Buxoro viloyatining aksariyat shaharchalari eng kichik guruhga (3 ming kishigacha) taalluqli ekanligi, ularning umumiy urbanizatsiya darajalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi shaharchalarning tashkil topishi respublikada urbanizatsiyaning ikkinchi to'lqinini keltirib chiqardi. Buning natijasida respublika bo'yicha 4434,4 ming kishi yoki 2008-yilgi qishloq aholisining 25,5 foizi birvarakayiga shahar aholisiga aylandi. Biroq, mamlakat miqyosida ushbu jarayon turlicha kechib, mintaqalar doirasida bir-biridan geografik va demografik xususiyatlariga ko'ra ancha farq qiladi. Jumladan,

Farg'ona vodiysiga yangi urbanistik siyosat ta'siri o'ta sezilarli; bu yerda 2193,7 ming qishloq aholisi (yangi shaharchalar aholisining $\frac{1}{2}$ qismi) shaharlik bo'ldi. 2008-yilgi qishloq aholisining Andijonda 37,1 foiz, Namangan va Farg'ona viloyatlarida deyarli yarmiga yaqini shahar aholisi tarkibiga qo'shildi. Natijada, bu holat 2009-yil shahar aholisi sonining keskin ko'tarilib ketishiga, pirovardida urbanizatsiya darajasining ham oshishiga olib keldi.

Chunonchi, Farg'ona (52,8 %), Andijon (48,0 %) va Namangan (42,8 %) viloyatlarining 2009-yilgi jami shahar joylar soni va aholi salmog'iga yangi shaharchalar katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni vaqtda, vodiy viloyatlarini aksariyat qishloqlari sug'orma dehqonchilik asosida shakllanganligi va yer resurslarining cheklanganligi bois, aholining mujassamlashuv darajasi o'ta yuqori. Bu holat yangi tashkil etilgan shaharchalarning o'rtacha aholi sonida ham seziladi (respublika bo'yicha – 4592 kishi). Masalan, Andijon viloyatida bu ko'rsatkich respublika bo'yicha eng yuqori – o'rtacha har bir shaharchaga 8238 kishi, Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham u respublika o'rtacha darajasidan yuqori (mos ravishda, 5625 va 4786 kishi).

Yangi shaharchalar mutlaq aholi soniga ko'ra katta demografik salohiyatga ega Samarqand (381,0 ming) va Toshkent (276,3 ming), o'rtacha aholi soni bo'yicha Jizzax va Samarqand viloyatlari alohida ajralib turishini ko'rsatadi. Ayni paytda ushbu viloyatlar ham yangi shaharchalarning 2008-yilgi qishloq aholisiga nisbati bo'yicha boshqa viloyatlar singari (vodiy viloyatlaridan tashqari) respublika o'rtacha darajasidan past. Shu bilan birga qayd etish lozimki, Jizzax va Samarqand viloyatlarining 2009-yil shahar aholisini $\frac{1}{3}$ qismidan ortig'i aynan yangi shaharchalarga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlari yangi shaharchalarning mutlaq va o'rtacha aholi soni, 2008-yil qishloq va 2009-yil shahar aholisiga hamda jami shahar joylarga nisbati kabi ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada eng quyi pog'onani egallaydi. Yangi shaharchalar soni va boshqa ko'rsatkichlarning pastligiga ko'ra, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi alohida ajralib turadi va bu holat uning umumiy urbanizatsiya darajasining deyarli o'zgarmay qolishiga sabab bo'ldi.

Yangi shaharchalar mamlakat shahar joylarida son jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lsada, ammo ular sifat jihatdan respublika urbanistik tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Masalan, 1989-yilda jami 221 ta shahar joylar mavjud bo'lib, ularning 70 foizi kichik shaharchalar guruhiga, chorak qismiga yaqini o'rta va yarim o'rta shaharlar sinfiga taalluqli bo'lgan. Shuningdek 12 ta katta, 3 ta yirik hamda yagona millioner (Toshkent) shahar mavjud bo'lgan. Shahar aholisi salmog'ida esa butunlay teskari holat kuzatilgan, ya'ni jami shahar aholisining 60,0 foizga yaqini 100 ming kishidan ortiq shaharlarga, 22,0 foizi 20,1-100 ming kishilik va atigi 18,3 foizigina kichik shaharlarga to'g'ri kelgan.

Keyingi o'n yillik davomida 13 ta yangi shahar punktlari tashkil topib, ularning jami soni 234 taga yetdi. Ayni vaqtda 100 mingdan ortiq aholisi mavjud yirik va katta shaharlar sinfiga Termizning qo'shilishi natijasida ularning jami shaharlar hissasidagi ulushi o'zgarib qoldi. Bu davrda eng katta o'sish o'rta va "yarim o'rta" shaharlar guruhida ro'y bergan (jami 17 ta shahar qo'shilgan). Ammo aholisi o'n ming kishigacha bo'lgan shahar joylar soni 1989 yilga nisbatan 8 taga qisqargan bo'lsada, guruhlarining jami shahar aholisidagi hissasi oldingi o'n yillikka nisbatan aytarlicha o'zgarib qoldi.

1999-2009-yillar davomida ham 100 mingdan ortiq aholisi mavjud shaharlar geografiyasi o'zgarishsiz qolgan, biroq, yangi urbanistik to'lqin ta'sirida ularning jami shahar aholisidagi ulushi 58,0 foizdan 49,3 foizga tushib qoldi. Shuningdek, bunday holat 20,1-50 va 50,1-100 ming kishilik shaharlar guruhida ham kuzatiladi (mos ravishda, 16,8 dan 12,8 ga va 9,4 dan 8,0 foizga). Vaholanki, bu davrda har ikkala sinf shaharlari sonida ham o'sish qayd etilgan edi. 2009-yilda 1000 ga yaqin qishloqlarga shaharcha posyolkasi maqomining berilishi kichik shahar joylarning, ayniqsa aholisi o'n mingdan kam bo'lgan shaharlar guruhining keskin ko'payishiga sabab bo'ldi. Natijada, ushbu guruh shahar punktlariga jami shahar aholisining 27,9 foizi to'g'ri kelmoqda. E'tiborli tomoni – mazkur guruhda bor yo'g'i 6 ta shahar – Qoravulbozor, Gazli, Marjonbuloq, Nurobod, Tolimarjon hamda Yangiobod "resurs" shaharlari mavjud bo'lib, qolgan 969 ta aholi punktlarining barchasi shaharchalar hisoblanadi.

2009-yildan keyingi yillarda respublika aholisining urbanizatsiya darajasi faqat Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlarida o'zgarib bo'lsada, haqiqatda esa yangi tashkil etilgan shaharchalarda shahar tashkil etuvchi tarmoqlar – sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida hamda ularda band aholi sonida deyarli o'zgarishlar kuzatilmadi.

So'nggi yillarda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning bevosita rahbarligi va tashabbuslari natijasida respublika siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohatlar natijasi urbanizatsiya jarayoni, uning tarkibiy qismi bo'lgan shahar va shahar aglomeratsiyalarida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, o'zining katta turistik resurslariga ega sayyohlik markazlari bo'lgan Shahrisabz va Xiva shaharlarini tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifasidan viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga o'tkazilishi, Toshkent viloyati markazini Nurafshon (sobiq To'ytepa) shahriga ko'chirilishi va bu joyda mutlaqo yangi smart shahar bunyod etilayotganligi, Toshkent siti, Namangan siti, Samarqand siti singari yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy shaharlar qurilmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekiston

hukumatiga mamlakat aholisining urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 foizga yetkazish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqish, bunda faqat poytaxt va viloyat markazlari bo'lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish e'tibor qaratish, shahar va posyolkalarda ko'p qavatli uylar qurishga, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda Iqtisodiyot vazirligi asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozimligini ta'kidlagan edi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga doir muhim vazifalar belgilab berilgan.


Mazkur Prezident farmonlari respublikada urbanizatsiya rivojlanishining inqilobiy **uchinchi to'liqini** boshlab berdi. Maqsadga erishish uchun, avvalgi xatolardan to'g'ri xulosa chiqargan holda, hududlarning real ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatidan kelib chiqib, puxta ilmiy asoslangan urbanistik siyosat olib borish lozim. Bunda mamlakatimiz iqtisodchi, iqtisodiy geograf, urbonolog va demograf olimlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi, ularning natijalarini amaliyotga joriy etib borish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi, uning negizi yoki moddiy asosi hisoblangan shaharlarni o'rganish iqtisodiy geografik tadqiqotlarning eng muhim obyektlaridan biri sanaladi [4].

2025-yil yanvar holatida O'zbekiston Respublikasining urbanistik to'rini jami 1179 ta shahar aholi punktlari, jumladan 120 ta shahar va 1059 ta shaharchalar tashkil etadi. Shu o'rinda urbanistik to'r – shahar joylarining "oddiy" sonini aks ettirsa, urbanistik tarkib – ushbu shaharlarning katta-kichikligini, ya'ni ularni sifat nuqtai nazardan qanday tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Har qanday mamlakatning urbanistik tarkibini o'rganishda, uning asosini tashkil etuvchi shaharlarning funksional tiplari va aholi soniga ko'ra klassifikatsiyasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy–hududiy tuzilishi to'g'risida" 2020-yil 28-avgustida qabul qilingan qonunda shahar va shaharchalarning huquqiy me'yorlari aniq belgilab qo'yilgan. Jumladan, tuman bo'ysunuvidagi **shaharlar** – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida yetti ming kishi bo'lgan, sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan aholi punktlari; **shaharchalar** – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida ikki ming kishi bo'lgan, sanoat korxonalariga, temir yo'l stansiyalari va

boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan, fuqarolar yig'inlaridan (mahallalardan) iborat bo'lgan aholi punktlari" – deb ta'rif berilganligini qayd etib o'tish lozim.

Respublika urbanistik to'rini huquqiy maqomiga ko'ra – 11,1 foizini shaharlar va 88,9 foizini shaharchalar tashkil etadi. Quyidagi ma'lumotlaridan mavjud 10 ta guruhning faqatgina 2 tasida, ya'ni 3 minggacha va 3-4,9 ming aholi mavjud bo'lgan guruhlardigina shaharlar mavjud bo'lmasa, shaharchalar aksincha aholisi 50 ming kishidan ortiq bo'lgan guruhlarda uchramasligini ko'rish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi urbanistik to'rining huquqiy maqomiga ko'ra toifasi

Manba: Rasm O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Har ikkala shahar aholi punktlar bor bo'lgan guruhlar soni 3 ta bo'lib, aynan shu guruhlardagi shaharchalar yaqin yillarda shahar maqomini olishga asosiy davogar hisoblanadi. Jumladan, aholisi 20-49,9 ming kishigacha bo'lgan – “yarim o'rta” shaharlar guruhida jami 85 ta shahar aholi punktlari mavjud bo'lib, ularning 56,5 foizini shaharlar va 43,5 foizini shaharchalar (shaharsozlik kodeksi me'yorlariga ko'ra “katta shaharchalar”) tashkil etadi. Aholisi 10-19,9 ming kishilik - kichik shaharlar guruhida mavjud jami 150 ta shahar punktlaridan 1/6 qismi shaharlar va 5/6 qismi shaharchalardan iborat. 5-9,9 ming kishilik – mayda shaharlar guruhida shaharlar soni 3 ta (Navoiy viloyati - G'ozg'on, Toshkent viloyati - Yangiobod, Buxoro viloyati - Gazli) ni, shaharchalar soni 356 tani tashkil

etadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi statistik hisobotlarni yuritishda shahar punktlarini aholi soniga ko'ra 10 ta guruhga (3-ming kishigacha, 3-4,9 ming, 5-9,9 ming, 10-19,9 ming, 20-49,9 ming, 50-99,9 ming, 100-249,9 ming, 250-499,9 ming, 500-999,9 ming va 1 mlndan ortiq) ajratib tahlil qiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xususan shaharlar geografiyasida, shuningdek, maxsus ilmiy tadqiqotlarda shaharlarni aholi soniga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratib o'rganiladi [101;174;178;186].

- 10 minggacha - mayda shahar;
- 10-20 ming - kichik shahar;
- 20-50 ming - "yarim o'rta" shahar;
- 50-100 ming - o'rta shahar;
- 100-250 ming - katta shahar;
- 250-500 ming - yirik shahar;
- 500-1000 ming - eng yirik shahar;
- 1 -5 mln. - millioner shahar;

• 5 mln.dan ortiq - "Super" millioner shahar. Albatta shaharlarning aholi soni bo'yicha bunday pog'anasimon joylashuvi-iyerarxik tartibi tasodif emas, chunki shaharlar o'zlarining bajaradigan funksiyasidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir demografik salohiyat va sig'imga ega bo'ladi.

Urbanizatsiya hozirgi zamonning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan biri hisoblanib, u barcha mamlakatlarda qishloq-shahar yo'nalishida aholi migratsiyasining kuchayishi, qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalarning ustuvor rivojlanishi (xususan axborot, servis, turizm va x.k.), shahar turmush tarzining tarqalishi va boshqalarda o'z aksini topadi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ushbu jarayonning sur'ati va yo'nalishi turlicha amalga oshmoqda.

Urbanizatsiyaning geografik ko'rsatkichi nafaqat shahar joylarning zichligi, balki shaharlarning katta-kichikligi yoki **hududiy urbanistik tarkibi** orqali ifodalanadi. Sababi, ma'lum bir hududdagi shahar aholisi bir qancha mayda shaharlar yoki son jihatidan uncha ko'p bo'lmagan yirik va o'rta shaharlarda mujassamlashgan bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda hududlarning urbanistik tarkibida katta va yirik shaharlarning mavjudligi nazarda tutiladi.

Masalan, 2025-yil yanvar holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 100 ming kishidan ortiq aholiga ega bo'lgan **millioner, juda yirik, yirik, katta** shaharlariga jami shahar aholisining qariyb 44,7 foizi to'g'ri kelmoqda. Respublikada bunday shaharlar to'ri Toshkent va Farg'ona viloyatlarida to'rttadan, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida ikkitadan, qolgan viloyatlarda bittadan mavjud. Hududiy urbanistik tarkib ishlab chiqarishning joylashuvi va

mujassamlashuvini aks ettiradi. Bu borada, albatta, turli yiriklikdagi shahar joylarning mavjudligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston sharoitida hududlarning haqiqiy urbanizatsiya darajasi va iqtisodiy rivojlanganligini o‘rta hamda “yarim o‘rta” shaharlar sinfi belgilab bermoqda. Respublika jami shahar aholi punktlarning atigi 1,9 foizi, aholisi 50-99,9 ming kishigacha bo‘lgan o‘rta (22 ta) shaharlar guruhiga taalluqli. O‘rta shaharlar geografiyasi tahlildan, ushbu guruh shaharlari respublika mintaqalari bo‘yicha deyarli teng taqsimlangan bo‘lsada, tabiiy sharoiti nisbatan noqulay Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta (Xo‘jayli, Beruniy, To‘rtko‘l, Chimboy, Taxiatosh), urbanistik salohiyati yuqori Toshkent (Yangiyo‘l, Parkent, Nurafshon), Namangan (Chust, Chortoq, Kosonsoy) viloyatlarida 3 tadan, Samarqand (Kattaqo‘rg‘on, Urgut), Buxoro (Kogon, G‘ijduvon), Andijon (Shahrixon, Asaka), Qashqadaryo (Koson, Kitob), viloyatlarida 2 tadan ushbu bo‘g‘in shaharlari bor.

1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasining hududiy urbanistik tarkibi
(01.01.2025-yil holatida)**

T/p	Mintaqalar	Jami shahar joylar	Shundan aholi soni bo‘yicha, ming kishi hisobida						
			1000 dan ortiq	500-1000	250-500	100-250	50-100	20-50	20 dan kam
	O‘zbekiston Respublikasi	1179	1	2	7	12	22	85	1050
	shu jumladan:								
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	38	–	–	1	–	5	2	30
	viloyatlar:								
2	Andijon	90	–	–	1	–	2	15	72
3	Buxoro	79	–	–	1	–	2	2	74
4	Jizzax	48	–	–	–	1	–	6	41
5	Qashqadaryo	130	–	–	1	1	2	8	118
6	Navoiy	53	–	–	–	1	1	3	48
7	Namangan	123	–	1	–	–	3	10	109
8	Samarqand	99	–	1	–	–	2	10	86
9	Sirdaryo	30	–	–	–	1	–	4	25
10	Surxondaryo	120	–	–	–	1	1	5	113
11	Toshkent	105	–	–	–	4	3	8	90
12	Farg‘ona	203	–	–	3	1	1	6	192
13	Xorazm	59	–	–	–	2	–	6	51
14	Toshkent shahri	2	1	–	–	–	–	–	1

Manba: Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, Navoiy (Zarafshon), Farg'ona (Quva) va Surxondaryo (Denov) viloyatlarda 1 tadan o'rta shaharlar mavjud. Xorazm, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida esa bu toifadagi shaharlarning yo'qligi shaharlarning pog'onasimon joylashuv qonuniyatlarining buzilishiga va buning natijasida hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, aynan ushbu guruh shaharlari yaqin kelajakda katta shaharlar guruhiga o'tishga asosiy davog'arlar hisoblanadi. Jumladan, hozirgi demografik vaziyat saqlanib qolsa, 2030-yilgacha Denov, Zarafshon, Shahrixon, Koson va Urgut singari o'rta shaharlar katta shaharlar guruhiga o'tishsa, o'rta shaharlar toifasiga Qamashi, Yangiyer, Oqtosh, Uchqo'rg'on, Xonobod, Rishton, Ohangaron shaharlari qo'shilishi kutiladi.

"Yarim o'rta" yoki aholisi 20-50 ming kishilik shahar aholi punktlari 85 tani tashkil qilib, ushbu shahar joylarining aksariyati o'rta shaharlar sinfi bilan birgalikda qishloq tumanlarining ma'muriy markazi vazifasini bajaradi. Mazkur guruh shaharlarining 36,7 foizi Farg'ona vodiysi viloyatlarida joylashgan (1-jadvalga qarang).

Mazkur guruh shahar joylarida jami shahar aholisining 21,8 foizi, jumladan o'rta shaharlarga 8,1 foizi (1515,4 ming kishi) va yarim o'rta shaharlarga 13,7 foizi (2566,7 ming kishi) to'g'ri keladi. O'rta shaharlar aholisi eng ko'p bo'lgan viloyatlarga aholi zichligi yuqori Andijon, Samarqand, Namangan, Toshkent, Farg'ona viloyatlari kirsam, aksincha Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida o'rta shaharlar aholisi mutlaq soni nisbatan kam. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, respublikaning o'ziga xos urbanistik tarkibi va rivojlanish ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda aynan o'rta sinf shaharlarini birinchi navbatda uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Chunki, O'zbekiston sharoitida mintaqalarning o'sish qutblari va markazlari vazifasini bajarishi uchun aynan mazkur guruh shaharlarining barcha imkoniyatlari yetarli. Jumladan, Denov, To'rtko'l, Chimboy, Koson, G'ijduvon, Urgut, Xo'jayli, Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l, Quvasoy, Chust, Chortoq, Zarafshon, Shahrixon, Asaka, Parkent, Nurafshon va Quva shaharlari o'sish qutblari vazifasini asosiy nomzod shaharlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi shahar joylarning 1050 tasi aholisi 20 ming kishigacha bo'lgan – **kichik shaharlar** guruhiga tegishli bo'lib, ushbu guruh a'zolarining 27 tasini shaharlar va 1023 tasini shaharchalar tashkil etadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishi va zamonaviy shaharlar shakllanishini shartli ravishda uchta asosiy davrga ajratish mumkin. Birinchi to'liqin – 1975-1979-yillar. 1972-yilda aholi punktlariga shahar maqomini berish meyorini 10 mingdan 7 mingga tushirilishi munosabati bilan, ularning soni

keskin ko'payib bordi. 1979-yilga kelib O'zbekistonda shaharlar 42 tadan 90 taga va shaharchalar 82 tadan 94 taga ko'paydi. Umumiy urbanizatsiya darajasi 36,6 foizdan 41,2 foizga oshdi. Bu davrda urbanistik tarkib asosan shaharlar hisobidan ko'paydi. Ikkinchi to'liqin – 2009-yil. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi natijasida 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Ushbu to'liqin ta'sirida umumiy urbanizatsiya darajasi 35,8 foizda 51,7 foizga ko'tarildi. Urbanistik to'r va tarkib yangi tashkil etilgan shaharchalar hisobidan yanada maydalashdi. Ushbu ikki to'liqinni respublikada urbanizatsiyaning ekstensiv davri sifatida ko'rish mumkin. Uchinchi to'liqin – 2016-yildan boshlanib, bunda asosan urbanizatsiyaning sifat bosqichiga o'tish, katta va o'rta shaharlarni iqtisodiy markaz sifatidagi rolini oshirib borish maqsad qilingan.

O'zbekiston Respublikasi urbanistik tizimi 2025-yil yanvar holatida 120 ta shahar va 1059 ta shaharchalardan iborat bo'lib, umuman olganda urbanistik to'r yetarli darajada shakllangan, galdagi vazifa mukammal iqtisodiy asosga ega urbanistik tarkibini shakllantirishdir. Mustaqillik yillarida urbanizatsiya jarayoni va uning asosini tashkil etuvchi shaharlar miqdor nuqtai nazardan deyarli o'sishdan to'xtagan, shaharlar ixtisoslashuvi sanoatdan xizmatlar sohasiga o'zgarib bormoqda. Bunda, shahar joylarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda “Smart City” (Smart Government, Smart Energy, Smart Transportation, Smart Buildings, Smart Water) konsepsiyasi bo'yicha shaharlarni boshqarishda, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash masalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. –Т.: Абу Али Ибн Сино, 2002. – 224 б
2. История новых городов Узбекистана / отв. ред. Г.Р.Рашидов. – Т.: Фан, 1976. – 255 с.
3. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. /монография/. -Т.: Mumtoz so'z, 2019 йил. – 180 б.
4. Qurbonov P.R. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining hududiy tarkibini takomillashtirish. Geografiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2025. – 254 b.

SIRDARYO VILOYATI SHAHARLARI AHOLI SONI DINAMIKASI VA TARKIBINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Musayev Bekzod Murodovich

Samarqand davlat

pedagogika instituti dotsenti

ORCID: 0000-0001-6258-6340

bekzodmusayev85@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Sirdaryo viloyati shaharlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, tarkibining hududiy jihatlari, viloyat shaharlari demografik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslab berilgan. Sirdaryo viloyati shaharlaridagi demografik jarayonlar, demografik salohiyati, aholining miqdoriy o'zgarishi va joylanishi, aholi sonining qayta tiklanishi, aholining milliy, hamda mexanik harakatini yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy rayon, rayon, demografiya, aholining milliy tarkibi, aholining jinsiy tarkibi, aholining yosh tarkibi, demografik salohiyati, demografik jarayonlar.

ДИНАМИКА ЧИСЛЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДОВ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЕГО СТРУКТУРЫ

Мусаев Бекзод Муродович

Доцент, Самаркандский государственный

педагогический институт

Аннотация: В статье научно обоснованы изменения в динамике численности населения городов Сырдарьинской области, территориальные аспекты его структуры, а также уникальные особенности демографического развития городов области. Показаны демографические процессы в городах Сырдарьинской области, восстановление численности населения, освещены национальные и миграционные движения населения.

Ключевые слова: демография, национальный состав населения, половой состав населения, возрастной состав населения, демографический потенциал, демографические процессы.

DYNAMICS OF POPULATION SIZE AND TERRITORIAL FEATURES OF THE COMPOSITION OF THE CITIES IN SYRDARYA REGION

Musayev Bekzod Murodovich

Associate Professor,
Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract: *This article scientifically substantiates the changes in the dynamics of the population size of the cities in the Syrdarya region, the territorial aspects of its composition, and the unique features of demographic development in the cities of this areas. An effort has been made to highlight the demographic processes in the cities of the Syrdarya region, the renewal of the population size, and to shed light on the national and mechanical movements of the population.*

Keywords: *demography, national composition of the population, gender composition of the population, age composition of the population, demographic potential, demographic processes.*

Kirish.

Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shahar aholi manzilgohlarining muhim o‘rin tutishi, ko‘plab vazifalarni ham bajaradi. Shahar aholi manzilgohlari har bir yurtning iqtisodiy tayanchi va suyanchi hisoblanadi. Shahar aholi manzilgohlarining ijtimoiy rivojlanishida ijtimoiy sohalarning, xususan, ta‘lim, sog‘liqni-saqlash va boshqa sohalarning roli yuqori. Binobarin, Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarida ta‘lim sohasida maktabgacha tarbiya va umumta‘lim maktablari faoliyati bevosita shahar va shaharchalarning demografik jarayonlar natijasi bilan bog‘liq bo‘lsa, oliy ta‘lim tizimi va uning rivojlanganligi hamda shahar va shaharchalar aholisining ma‘lumotlilik darajasi demografik jarayonlarga bevosita ta‘sir etuvchi muhim omillardandir.

Adabiyotlar sharhi.

Mashhur grek urbanisti K.Doksiadis “odam shaharlarda mag‘lubiyatga uchradi, agarda shahar muammosiga yangicha yondashish topilmasa, unda bizni halokat kutmoqda. Arxitektorlar, geograflar, iqtisodchilar, demograflar va sotsiologlar katta shaharlar va urbanizatsiya muammolari bilan shug‘ullanmoqdalar, hamma bitta oqimga tashlanmoqdalar faqat qirg‘oqning turli qismlaridan” [o;] degan edi. Darhaqiqat, shaharlarni to‘g‘ri joylashtirish va boshqarish juda ko‘plab muammolarning oldini olish bilan birga aholining yashash sharoitini ham yaxshilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shaharlar ijtimoiy demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va boshqa ko'plab muammolari, joylanishi, hududiy jihatlari, shaharlar aholisining demografik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishning ilmiy asoslari bo'yicha xorijiy olimlardan F.Perru, J.Gottman, K.Linch, R.Merfi,, F.Gibbert, U.Alonso va boshqalar tomonidan o'rganilgan. MDH mamlakatlarida O.A.Konstantinov, V.Sh.Djaoshvili, G.M.Lappo, F.M.Listengurt, Ye.N.Persik, B.S.Xorev, mamlakatimizda shaharlarni rivojlanishi va joylanishini geografik o'rganish masalalari bo'yicha E.A.Axmedov, O.B.Ata-Mirzayev, T.I.Raimov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov Z.T.Abdalova, M.M.Egamberdiyeva, A.M.Mavlonov, S.K.Tashtayeva, P.R.Qurbonov kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sirdaryo viloyatining Guliston, Xovos shaharlarida aholi qadimdan yashab kelganligi tarixiy manbalarda alohida qayd etilgan. XX asrning 60-yillarida qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, mehnat resurslarining migratsiyasi natijasida, viloyat aholisining soni juda tez ortishiga olib keldi. Mazkur davrlarda nafaqat, qishloq joylardan balki, shahar joylarda ham ko'plab kishilar ko'chib kelib joylashgan.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonida shahar aholisining soni 1030,6 ming kishi bo'lib, jami aholining 47,3 foizini tashkil etadi (01.01.2020-yil). Bu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy rayon respublikada o'rta o'rinlarni egallaydi. Viloyatlar kesimida oladigan bo'lsak, Jizzax viloyatida jami shahar aholisi 659,9 ming kishi bo'lib, shahar aholisining ulushi 46,7 foizga teng. Sirdaryo viloyati shahar va shaharchalarida esa 366,9 ming kishi yashaydi. Umumiy shahar aholisining ulushi 42,5 foizni tashkil qiladi (01.01.2020-yil). Iqtisodiy rayondagi Sirdaryo viloyati mamlakatimizda o'zining demografik salohiyati bo'yicha oxirgi o'rinlarni egallaydi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni demografik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri, respublikaning boshqa hududlariga nisbatan aholi soni o'sish sur'atining yuqoriligidir. "Aholining son jihatdan o'sishi hamda hududiy joylanishi zichligini tahlil qilish o'rganilayotgan regionning demografik jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab berishda katta ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, aholining miqdoriy o'zgarishi va joylanishi aholi sonining qayta tiklanishi hamda mexanik harakati, hududga aholining kelib o'rnashgan vaqti bilan bog'liq uzoq tarixiy jarayonlar va ularga ta'sir qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillar asosida vujudga keladi" [8;]. Shu nuqtai nazardan olganda, iqtisodiy rayon aholi soni dinamikasi ham ko'plab omillar ta'sirida kuchayib bormoqda.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholisining 64 foizi Jizzax viloyati shaharlariga to'g'ri kelsa, Sirdaryo viloyati shaharlariga esa 36 foizi to'g'ri keladi. Jizzax shahriga iqtisodiy rayon shahar aholisining 37 foizi, Guliston shahriga 14 foizi to'g'ri kelib, eng kam aholi Baxt shahriga 3 foiz, Shirin, Gagarin, Do'stlik shaharlariga 4 foizdan to'g'ri kelmoqda.



1-rasm. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholisi taqsimoti.

Iqtisodiy rayondagi Jizzax viloyati aholi soni o'sishining yuqoriligi bilan ajralib tursa, aksincha, Sirdaryo viloyati aholisining o'sishi pastligi bilan ko'zga tashlanadi. Mazkur viloyatlarning nafaqat, umumiy, balki shaharlari aholisi ham ko'pgina xususiyatlari bilan, ya'ni o'sish va ko'payish bo'yicha, bir-biridan farq qiladi. Tog' oldi va adirlarda joylashgan G'allaorol, Usmat, Zomin kabi shaharlarida aholining o'sish ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, geografik o'rniga ko'ra, tekislik va cho'l hududlardagi Gagarin, Shirin, Baxt, Sirdaryo shaharlarida aholining o'sish ko'rsatkichlari biroz pastligi bilan ajralib turadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rayonda 2000-yil ma'lumoti bo'yicha, shahar aholisi 500,8 ming kishi bo'lgan holda, urbanizatsiya darajasi 31,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 523,2 ming kishiga teng bo'ldi yoki o'tgan 5 yil davomida aholining ko'payish sur'ati 4,3 foizni hamda urbanizatsiya darajasi 30,6 foizni, ya'ni 0,5 foizga kamayganligi kuzatildi.

Sirdaryo viloyatining shaharlarida aholi soni dinamikasida o'zgarishlar bir xil ko'rinishda emas. Masalan, Sirdaryo shahrini oladigan bo'lsak, aholining o'sish o'rniga kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

1-jadval

Sirdaryo viloyati yarim o'rta shaharlari aholi soni dinamikasi (2015-2020 yy.)

№	Shaharlar	Tashkil topgan sanasi	2015 yil	2020 yil	O'sish, %	O'rtacha yillik ko'payish, %
			Aholi soni, ming kishi	Aholi soni, ming kishi		
1	Yangiyer	1957 yil	39079	43307	110,8	1,70
2	Sirdaryo	1971 yil	28921	30368	105,0	0,75
3	Xovos	1960 yil	27501	28437	103,4	0,55

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonining ko'plab shaharlari aholi soni 50 mingga bo'lgan kichik shaharlardir. Bu shaharlarning aholisi juda sekinlik bilan ko'paymoqda. Masalan, Jizzax viloyatidagi Do'stlik shahrining aholisi 2000-yilda 16,0 ming kishi bo'lgan bo'lsa 2020-yilda 20,0 ming kishini tashkil qilmoqda, o'rtacha yillik ko'payish 1,05 foizni tashkil etgan. Shirin hamda Baxt shaharlarida ham shunday holatlarni kuzatish mumkin. Baxt shahri aholisi 2000-yilda 11,7 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 13,5 ming kishiga yetib, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,65 foiz, ya'ni yiliga o'rtacha 90 kishidan ko'payib borgan. Shirin shahrida ham shunday holat shahar aholisi soni 2000-yilda 13,9 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, 18,0 ming kishini tashkil qilmoqda, yiliga shahar aholisining o'rtacha ko'payish 0,40 foizga to'g'ri kelmoqda.

Sirdaryo viloyati shahar aholisining ko'payishi ko'p jihatdan migratsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shaharlarga aholini migratsiya qilish uchun shahar va shaharchalarda sanoatni, xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish kerak. Viloyatida sanoat sust rivojlanganligi uchun shaharlarning maydoni kengaymadi va ularning soni ko'paymadi, hozirgi vaqtda aholisining soni ham sekinlik bilan ortib bormoqda. Respublikada 2009-yilda ba'zi qishloq aholi manzilgohlariga shaharcha maqomi berilishi Sirdaryo viloyatida ham urbanizatsiya darajasining oshishiga olib keldi.

“Shahar aholisi sonining ortib borishida aholining tabiiy ko'payishi, migratsiya va qishloq aholi manzilgohlarining shaharlarga aylantirilishi omillari muhim rol o'ynaydi” [9;]. Bu omillarning Sirdaryo viloyati shaharlarida 2000-2020 yillar davomida aholi o'sishiga ta'sirini baholaydigan bo'lsak, barcha shaharlarda tabiiy ko'payish hisobiga aholi soni ortib borganligi kuzatiladi.

2-jadval

Sirdaryo viloyati shahar va shaharchalari aholisining ko'payish su'rati bo'yicha guruhlariga ajratilishi (2000-2020 yy)

Aholisining ko'payish su'rati, foizda	Shahar va shaharchalar nomi	Shahar va shaharchalar soni	Aholi soni, ming kishi
Yuqori (2,00 foizdan ortiq)	Paxtaobod, Yangiyer	2 6,6	<u>61805</u> 17,1
O'rtacha (1,00-2,00 %)	Guliston, Sardoba, Farg'ona, Andijon, Boyovut, Bekat, Sohil, Sho'ro'zak, Paxtakon, Dehqonobod, Beshbuloq, Oqoltin, Ziyokor, Gulbahor	14 46,7	<u>167536</u> 46,4
Past (1,00 % va undan kam)	Baxt, Sirdaryo, Shirin, Markaz, Do'stlik, Sayxun, Xo'lkar, Ulug'bek, Xalqako'l, Navro'z, Quyosh, Malik, J.Mamanov, Xovos	14 46,7	<u>131799</u> 36,5
Jami	30 ta	30 100	<u>361230</u> 100

Izoh* Kasr sur'atida- aholi soni va shahar, shaharchalar soni hamda maxrajida-foizi.

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sirdaryo viloyatida 2000-2020 yillarda shahar aholisining mutlaq ko'payishiga ko'ra eng yuqori o'sish Yangiyer shahriga o'rtacha yillik 2,05 foiz, eng kam o'sish Sirdaryo shahriga to'g'ri kelmoqda, Shirin, Guliston, Baxt, shaharlarida mazkur yillarda aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'atlari 1,65; 1,10; 0,60 foizni tashkil qilgan.

Viloyatda shahar aholisi ko'payishining yuqori ko'rsatkichlari Oqoltin, Sayxunobod va Guliston tumanlaridagi shaharchalarda ko'zga tashlanadi. Sirdaryo va Mirzaobod tumanlaridagi shaharchalarda aholi soni dinamikasi sustroq deyish mumkin. Sirdaryo viloyati shahar aholisining (2000-2020-yy.) mutlaq ko'payishi turlichaligi avvalgi yillardagi aholining yosh va jinsiy tarkibidagi nomuvofiqliklar, tarixiy demografik vaziyat, nikoh, tug'ilish, o'lim holatlarining farqlari, migratsiya, shuningdek, turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liq. Shunday qilib, viloyatda shahar aholisi o'sishida ma'lum hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular shaharlar tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga bog'liq holda birmuncha farq qiladi. Shu nuqtai-nazardan Sirdaryoviloyati shaharlari aholisi sonining 2000-2020 yillarda o'sish su'rati bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Aholining o'rtacha yillik ko'payish darajasi yuqori bo'lgan shahar aholi manzilgohlari (2,00 foizdan ortiq): Yangiyer, Yangiobod;
2. Aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati o'rtacha bo'lgan shahar aholi manzilgohlari (1,00-2,00 %): Guliston, Dehqonobod, Sardoba;
3. Aholining o'rtacha yillik ko'payish holati past bo'lgan (1,00 % va undan kam) shaharlari: Sirdaryo, Baxt, Shirin va boshqalar.

Umuman olganda, Sirdaryo viloyatida shahar aholisi soni oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada o'sib bormoqda. Shahar hamda shaharchalarda aholi soni o'sishiga tabiiy sharoit hamda sanoatning rivojlanishi ta'sir ko'rsatganligi bois, viloyat shahar aholi manzilgohlari asosan cho'l hududlarida joylashganligi sababli, aholi soni ko'payish sur'ati nisbatan pastligini ko'rish mumkin.


Aholi soni dinamikasi uning tarkiblari tahlilisiz amalga oshmaydi. Shu o'rinda mazkur tadqiqot obyektida shaharlar aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlarda ushbu hududlar aholisi tarkibi (yosh, jins, milliy) alohida o'rin tutadi. Binobarin, iqtisodiy rayon aholisi yosh tarkibi uning yoshlardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, aholi guruhlarining jami aholi sonidagi ulushi tahlil qilinganda, 0-15 yoshlar salmog'i barcha boshqa yoshdagilardan yuqoriligi ma'lum bo'ldi. Demak kelajak o'n-yigirma yil ichida iqtisodiy rayonning aholi soni tug'ilishning yuqoriligi evaziga ko'payishda davom etadi. 2021-yil ma'lumotlari asosida Sirdaryo viloyatida jami aholisining jinsiy tarkibi tahlil qilinganda 0-44 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlarda erkaklar ulushining kattaligi ma'lum bo'ldi. 45 yosh va undan keyingi yosh guruhlarida esa ayollar salmog'i

oshib boradi. Keksa yoshdagi aholi tarkibida ayniqsa, 80 yoshdan yuqori yoshdagilarda ayollar salmog'i keskin oshib boradi.

Sirdaryo viloyati shaharlarida aholi tarkibida 28 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlarida erkaklar salmog'i yuqori bo'lgan bo'lsa, keyingi yosh guruhlarida ayollarning salmog'i oshib borishi kuzatilmoqda, bunga sabab shaharlarda erkaklarning migratsiyadagi faolligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, aholining jinsiy tarkibi tahlil qilinganda, 2020-yilda shahar aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i Baxt, Sirdaryo kabi shaharlarda yuqoridir. So'nggi yillarda, Shirin, shahrida ayollar ulushi erkaklarga nisbatan balanddir. Viloyat shaharlari aholisining demografik rivojlanishida va tarkibida uning milliy tarkibi alohida o'ringa egadir. Sirdaryo viloyati shaharlaridagi aholining milliy tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak unchalik murakkab emas.

Guliston shahrida o'zbeklarning jami aholi milliy tarkibidagi ulushi 2011-yilda 73 foiz bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, ular salmog'i 76,4 foizga yetdi. Shaharda o'zbeklardan keyingi o'rinda ruslar turadi, ularning ulushi ham boshqa shaharlardagi bo'lgani kabi pasayib bormoqda. Masalan, 2011-yilda ruslar jami aholi 8,9 foizni, 2020-yilga kelib esa 7,2 foizni tashkil qilmoqda. Guliston shahri aholisi milliy tarkibida ko'pligi bo'yicha uchinchi o'rinda tojik millatiga mansub aholi egallaydi. Ularning shahar aholisidagi hissasi 6,4 foizdir. Guliston shahrida iqtisodiy rayonning boshqa shaharlaridan farqli koreys milatiga mansub aholi ham yashashadi. Hozirda ularning soni 1966 kishi bo'lib, jami shahar aholisi ulushida 2,1 foizga yetdi. Ushbu millat vakillarining ham borgan sari kamayib ketayotganligi kuzatilmoqda.

Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibida eng ko'p rus millatiga ega bo'lgan shahar bu, Shirin shahri hisoblanadi. Shirin shahrida ruslar 2011-yilda 9,2 foizni, 2020-yilga kelib esa 7,5 foizni tashkil qilmoqda, Shaharda 2020-yilda o'zbeklar hissasi 78,6 foizdan bo'lmoqda. Shirin shahrida ham aholi soni ko'pligi bo'yicha uchinchi millat bu tojik milatiga mansub kishilardir, ularning jami aholi sonidagi ulushi 5,5 foizdir.



2-rasm. Guliston shahar aholisining milliy tarkibi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Viloyat shaharlari ichida o'zbeklarning salmog'i jihatidan boshqa shaharlarga nisbatan, biroz pastroq ulushiga ega bo'lgan shahar, bu Yangiyer shahridir. Yangiyer shahri aholisining milliy tarkibida o'zbeklarning ulushi 2011-2020-yillarda 65,3 foizdan, 70,8 foizga ko'tarilgan. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklardan keyingi o'rinlarni tojiklar va ruslar band etib, ularning ulushi 15,9 foiz hamda 5,8 foizlarni tashkil qilmoqda. Shirin shahrida o'zbeklardan keyingi o'rinda ruslar ko'pligi bo'yicha ikkinchi o'rinda tursa, Yangiyer shahrida o'zbeklardan so'ng tojiklar ikkinchi o'rinda turadi.

Sirdaryo viloyati umumiy maydoni 5,1 ming kv. km. bo'lib, har bir shahar aholi manzilgohi o'rtacha 140 kv km ga teng. Viloyat shaharlarining umumiy maydoni 220,9 kv. km. bo'lib, 1 km. kv. yer maydoniga 2010-yilda 1960 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, unga mos holda 2022 yilda 2384 nafar doimiy aholi soni to'g'ri keladi.

3-jadval

Sirdaryo viloyati shaharlari maydoni va aholi zichligi

t/r	Shaharlar	2010 yil			2022 yil		
		Aholi soni	Maydoni kv.km.	Zichlik, ming kishi	Aholi soni	Maydoni kv.km.	Zichlik, ming kishi
1	Guliston	85441	36,2	2360	93432	36,2	2580
2	Shirin	17996	13,3	1353	19042	13,3	1431
3	Yangiyer	39079	29,8	1311	45265	29,8	1518
4	Sirdaryo	28921	10,3	2807	31388	10,3	3047
5	Baxt	12745	2,2	5793	13751	2,2	6250
	Jami	184182	91,8	2006	202878	91,8	2210

Manba: Jadval Sirdaryo viloyatlari statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shaharlar ichida maydoni eng yirik shaharlarga Guliston va Yangiyer shaharlari kiradi. 2010-yilda viloyatda aholi zichligi bo'yicha Baxt (5793 kishi), shahri yetakchi bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib esa Baxt (6250 kishi) shaharlarida zichlik yuqoriligi kuzatildi. Viloyat shaharlari ichida aholi zichligi eng past ko'rsatkichlarga 2010-yilda Yangiyer (1311 kishi), Shirin (1353 kishi) shaharlari bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda Shirin (1431 kishi) Yangiyer (1518 kishi), shaharlarda zichlik eng past ko'rinishdadir.

Xulosa va takliflar.

Sirdaryo viloyatida shaharlar soni bilan shaharchalar soni o'rtasida o'ziga xos nomutanosiblik vujudga kelgan bo'lib, viloyatda bitta shaharga 5 ta shaharchaga teng. Shunday qilib, viloyat shaharlar aholisi soni va tarkibida ma'lum hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular shaharlar tabiiy sharoiti va

ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga bog‘liq holda o‘zgarib bormoqda. Jumladan, cho‘l hududlaridagi shahar va shaharchalarda aholining tug‘ilish darajasi past, o‘lim ko‘rsatkichi esa yuqoridir, bunga asosiy sabab ushbu hududlar tabiiy sharoitining noqulayligidir.

Adabiyotlar:

1. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 13 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тuzилишини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 68-сон Қарори.* <https://lex.uz/docs/1486944>.
2. *Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.-Т.: Абу Али Ибн Сино, 2002.-224 б.*
3. *Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари.-Т.:Ўзбекистон, 1991.-221 б.*
4. *Доксиадис К. Концепция города. –М.: Мысл 1953 г.263 с*
5. *Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш. - Тошкент: Тафаккур, 2020. - 367 б.*
6. *Солиев А.С. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. - Тошкент: 2014. - 387 б.*
7. *Тожиева З.Н., Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг худудий хусусиятлари. География фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2017 й. 267-б.*
8. *Тожиева З.Н. Жиззах вилояти аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ижтимоий-иқтисодий муаммолар. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 1998 й.-34-б.*
9. *Хушвақтов Ҳ.О. Мирзачўлни ўзлаштириш учун аҳоли кўчирилиши ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи(1946-1970 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.:2019 й.*
10. *www.stat.uz*

FINTECH VA MOBIL BANKING PLATFORMALARIDA KIBERXAVFSIZLIK DARAJASINI BAHOLASHNING ILG'OR YONDASHUVLAR

Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Bank hisobi va audit" kafedrası
katta o'qituvchi, PhD
ORCID: 0009-005-8019-4195
mirzayevamatluba76@gmail.com

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni mobil banking va fintech platformalari orqali kengaytirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bu jarayon axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni himoya qilish va IT infratuzilmaning barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq yangi xavf va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu tadqiqotda fintech va mobil banking tizimlarida kiberxavfsizlik darajasini baholashning ilg'or yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, xavf tahlili, zaifliklarni aniqlash, sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etish hamda ma'lumotlarni himoyalashning zamonaviy standartlari (ISO/IEC 27001, NIST, PCI DSS va boshqalar) o'rganiladi. Shuningdek, kiberxavfsizlik ko'rsatkichlarini kompleks baholash modeli taklif etilib, fintech infratuzilmasining ishonchliligi va foydalanuvchi ma'lumotlarining himoya darajasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: fintech, mobil banking, kiberxavfsizlik, IT infratuzilma, ma'lumotlar xavfsizligi, xavf tahlili, ilg'or yondashuvlar.

ПУТИ ОЦЕНКИ УРОВНЯ КИБЕР БЕЗОПАСНОСТИ В ПЛАТФОРМАХ ФИНТЕК И МОБИЛ БАНКИНГ

Мирзаева Матлуба Гайбулла кизи
Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра «Бухгалтерский учет и аудит в банках»
старший преподаватель, PhD

Аннотация. Стремительное развитие цифровой экономики способствует расширению финансовых услуг через мобильный банкинг и финтех-платформы. В то же время этот процесс порождает новые риски и угрозы, связанные с обеспечением информационной безопасности, защитой данных и устойчивостью ИТ-инфраструктуры. В данном исследовании анализируются передовые подходы к оценке уровня кибербезопасности в системах финтех и мобильного банкинга. В

частности, рассматриваются методы анализа рисков, выявления уязвимостей, внедрения систем мониторинга на основе искусственного интеллекта, а также современные стандарты защиты данных (ISO/IEC 27001, NIST, PCI DSS и др.). Кроме того, предлагается комплексная модель оценки показателей кибербезопасности и разрабатываются рекомендации по повышению надежности финтех-инфраструктуры и уровня защиты пользовательских данных.

Ключевые слова: финтех, мобильный банкинг, кибербезопасность, IT-инфраструктура, безопасность данных, анализ рисков, передовые подходы.

WAYS TO IDENTIFY THE LEVEL OF THE CIBER SECURITY IN THE PLATFORMS OF FINTECH AND MOBILE BANKING

Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi

Tashkent State University of Economics
Department of "Bank Accounting and Audit",
Senior Lecturer, PhD

Abstract. The rapid development of the digital economy contributes to the expansion of financial services through mobile banking and fintech platforms. At the same time, this process brings new risks and threats related to information security, data protection, and the resilience of IT infrastructure. This study analyzes advanced approaches to assessing the level of cybersecurity in fintech and mobile banking systems. In particular, it examines methods of risk analysis, vulnerability detection, implementation of artificial intelligence-based monitoring systems, as well as modern data protection standards (ISO/IEC 27001, NIST, PCI DSS, etc.). In addition, a comprehensive model for evaluating cybersecurity indicators is proposed, and recommendations are developed to enhance the reliability of fintech infrastructure and the level of user data protection.

Keywords: fintech, mobile banking, cybersecurity, IT infrastructure, data security, risk analysis, advanced approaches

Kirish.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlar sektorida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, fintech (financial technology) kompaniyalari va mobil banking platformalari orqali foydalanuvchilarga qulay, tezkor va arzon xizmatlar taqdim etilmoqda. Raqamli to‘lov tizimlari, mobil ilovalar, onlayn kreditlash va elektron hamyonlar iqtisodiy faoliyatning muhim qismi sifatida shakllanib bormoqda. Shu bilan birga, bu

tizimlarning keng qo'llanilishi kiberxavfsizlik masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Fintech infratuzilmasi va mobil banking tizimlari ochiq tarmoqlar orqali ishlashi, uchinchi tomon xizmatlarini jalb etishi hamda katta hajmdagi shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlashi ularni turli kiberhujumlar uchun nishonga aylantiradi. So'nggi yillarda phishing, malware, DDoS, credential stuffing va ma'lumotlar sizib chiqishi kabi xurujlar sonining ortishi tizim ishonchliligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu sababli, ushbu platformalarda kiberxavfsizlik darajasini muntazam baholab borish, xavf va zaifliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ilg'or yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur ishda fintech va mobil banking tizimlarida kiberxavfsizlikni baholashning zamonaviy usullari, xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001, NIST, PCI DSS) va ilg'or amaliyotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot xavfsizligi ko'rsatkichlarini o'lchash, xavf tahlilini avtomatlashtirish hamda sun'iy intellekt yordamida tahdidlarni prognoz qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi — fintech va mobil banking platformalarida kiberxavfsizlik darajasini baholashning samarali metodikasini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar orqali ma'lumotlar himoyasi va tizim barqarorligini oshirishdir.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda raqamli banking va fintech xizmatlarining jadal rivojlanishi bank tizimi transformatsiyasining asosiy yo'nalishiga aylandi. Raqamli moliyaviy xizmatlar mijozlar uchun qulaylik, tezkorlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, banklarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Turli mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bu jarayonning iqtisodiy, texnologik va xavfsizlik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Khusanov N. A. va Khusanov D. N. raqamli iqtisodiyotning bank tizimiga ta'sirini tahlil qilib, O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayonida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi. Ular raqamli mahsulotlar joriy etilishi banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirishi va xizmat sifati oshishiga olib kelishini isbotlaydi [2].

Mamadiyarov Z. va Akhmedova D. raqamli banklarning paydo bo'lishi moliyaviy inklyuziyani kengaytirishini, ya'ni aholining turli qatlamlariga bank xizmatlarini yetkazish imkonini berishini ta'kidlaydi. Mualliflar uchun raqamli banklar 24/7 rejimida ishlash orqali bank tizimining samaradorligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi [3].

Sobirov I. I. va Makhmadaliev N. esa O'zbekistonda raqamli banklar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun IT-infratuzilmani rivojlantirish,

xalqaro standartlarga mos kiberxavfsizlik tizimini joriy etish zarurligini ilgari suradi [4].

Maxmudova M. o'z ishida raqamli texnologiyalarning bank xizmatlaridagi afzalliklarini tahlil qilib, shu bilan birga foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish raqamli banklar uchun eng muhim masala ekanligini alohida ta'kidlaydi [5].

Xorijiy tadqiqotchilar asosan raqamli bankingning texnologik arxitekturasi, xavfsizlik mexanizmlari ustida to'xtalishadi.

Indriasari E. va mualliflar sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va blokcheyn asosida qurilgan raqamli banking tizimlari "aqlli audit" va "xavf monitoringi" funksiyalarini avtomatlashtirish imkonini berishini ta'kidlaydi [6].

Shanti R., Avianto W. va Wibowo W. A. raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati uchta omilga bog'liqligini belgilaydi: texnologik tayyorgarlik, mijozlarning ishonchi va davlat tomonidan normativ-huquqiy qo'llab-quvvatlash [7].

Kirowati D. va mualliflar o'z tadqiqotlarida fintech to'lov tizimlari va raqamli kreditlash (lending) an'anaviy banklarning moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ular fintechni raqobatchi emas, balki hamkorlik imkoniyatini yaratuvchi innovatsion yo'nalish sifatida baholaydi [8].

Stefanelli V., Manta F. va Toma P. open banking kontseptsiyasini tahlil qilib, banklar "ko'rinmas xizmat platformalari"ga aylanish xavfini muhokama qiladi. Ular ma'lumot almashish jarayonlarida kiberxavfsizlik auditi va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishni tavsiya etadi [9].

Waliullah M. va mualliflar raqamli bankingda kiberxavfsizlik tahdidlari va ularning mijoz ishonchi hamda xizmatlardan foydalanishga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotchilar risklarni kamaytirish uchun muntazam kiberxavfsizlik, IT-infratuzilma baholash va risk-asosli nazorat tizimi joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli moliyaviy xizmatlar sohasidagi xavflarni aniqlash, bank tizimida kiberxavfsizlik auditi va IT infratuzilmani baholashning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganishdir. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar hamda IMF, OECD, FATF va Jahon banki hisobotlari chuqur tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali raqamli moliyaviy xizmatlar va ularning xavfsizlik jihatlari bo'yicha ilmiy asoslangan ma'lumotlar to'plandi. Bank va fintech kompaniyalarining operatsion faoliyati, kiberxavfsizlik hodisalari va IT infratuzilma ko'rsatkichlari statistik jihatdan o'rganildi. Ushbu metod xavf va

risklar darajasini raqamli ifodalashga imkon berdi. Mahalliy va xalqaro tajribalar solishtirildi. Shu asosda O'zbekiston bank tizimi uchun samarali strategiya va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mutaxassislar bilan o'tkazilgan intervyular orqali raqamli moliyaviy xizmatlar sohasidagi xavflar aniqlanib, ularni kamaytirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston bank tizimida raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tavsiyalar shaklida bayon etildi. Tadqiqot davomida IMF, OECD, FATF, Jahon banki, Germaniya Bundesbanki, Buyuk Britaniya FCA, AQSh Federal Reserve va Singapur MAS rasmiy saytlaridagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu manbalar tadqiqot natijalarining haqqoniyligi va rasmiyligini ta'minladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda global moliya tizimlarida raqamli transformatsiya jarayoni bank xizmatlarining samaradorligini oshirish bilan birga, yangi xavf va risklarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston bank tizimida raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan mobil banking va fintech platformalarining xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan.

Xalqaro amaliyotda bu maqsad uchun IMF va Jahon banki tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan "Financial Sector Assessment Program" (FSAP) dasturi mavjud bo'lib, u moliya tizimlarining barqarorligini baholash, zaif tomonlarini aniqlash va xalqaro standartlarga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan.

Misol uchun, "Financial Sector Assessment – A Handbook" hujjatida banklar va moliyaviy institutlar uchun umumiy baholash (assessment) usullari, metodologiyalar va audit tushunchalari keltirilgan.

Shuningdek, IMF tomonidan ishlab chiqilgan "Code of Good Practices on Transparency in Monetary and Financial Policies" hujjatida markaziy banklar va moliyaviy organlar uchun shaffoflik, hisobot berish borasida tavsiyalar mavjud.

Mazkur prinsiplardan ayrimlari:

- Moliya institutlari va moliyaviy sektordagi nazorat organlari o'z operatsiyalari va hisobotlarini mustaqil auditorlar tomonidan tekshirtirilgan bo'lishi va ochiq e'lon qilinishi kerak.

- Moliyaviy tizimning infratuzilmasi, korporativ boshqaruv, hisob-kitob va hisobot standartlari xalqaro standartlarga (masalan, Basel Committee on Banking Supervision Core Principles) muvofiq bo'lishi tavsiya etiladi.

Quyida International Monetary Fund (IMF) va Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) ma'lumotlari asosida "Raqamli moliyaviy xizmatlar (mobil banking, fintech) xavflarini audit qilishning yangi yondashuvlari" mavzusi bo'yicha rasmiy jadval ko'rinishida tuzilgan.

1-jadval.

“Raqamli moliyaviy xizmatlar (mobil banking va fintech) xavflarini audit qilishning yangi yondashuvlari: IMF va OECD tavsiyalari asosida”

Nº	Yondashuv nomi	Izoh	Tegishli tashkilot va manba
1	Kiberxavfsizlik auditi va operatsion chidamlilik (“cyber & operational resilience audit”)	Bank va moliyaviy institutlar IT/telekommunikatsiya infratuzilmasi zaifliklari, xakerlik hujumlari, uchinchi tomon-xizmat ko'rsatuvchi provayderlar xavfi bo'yicha muntazam auditdan o'tishi zarur. IMF bu holatni “ICT/cyber risk makro-moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi eng muhim operatsion risklardan biri” deb atagan.	IMF – “Cyber Resilience— Delivering through Disruption”. (IMF)
2	IT infratuzilma baholash va bulut xizmatlari tartibi	Raqamli bank xizmatlari bulutli hisoblash, ulkan ma'lumotlar, API, micro-services kabi zamonaviy infratuzilma elementlari orqali amalga oshadi. IMF ma'lumotlarida bulut xizmatlaridan foydalanish va uchinchi tomon provayderlarining roli xavfni oshirishi qayd etilgan.	IMF – FSAP hisobotlari
3	Ma'lumotlar xavfsizligi (data security) va ma'lumot almashinuvi nazorati	OECD raqamli xavfsizlik siyosati doirasida «digital security risk management», «digital security of products and services», «digital security of critical activities» kabi toifalarni ishlab chiqqan. (OECD)	OECD – “Policy Framework on Digital Security” (2022) (OECD)
4	SupTech va RegTech audit vositalari integratsiyasi	Bank nazorat organlari va tijorat banklari raqamli xizmatlar xavfini baholashda sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan monitoring va analytics vositalaridan foydalanishi kerak. OECD nusxalarida regtech/suptech vositalarining normativ nazorat jarayonida xavf tug'dirishi mumkinligi ko'rsatilgan. (OECD)	OECD – hisobotlar
5	Risk-asosli audit yondashuvi va uzluksiz monitoring	OECD materiallarida raqamli xavfsizlikni boshqarishda tizimli risk-asosli yondashuv (risk-based approach) va uzluksiz audit, monitoring muhim ekanligi ta'kidlangan. (OECD)	OECD
6	Mijoz identifikatsiyasi va autentifikatsiya xavfsizligi	Fintech va mobil banking platformalarida mijoz identifikatsiyasi, autentifikatsiya va cheklovli kirish nazorati (IAM) muhim omil sifatida EU/IMF/FSB hujjatlarida qayd etilgan.	IMF – Fintech Notes (2024) (IMF)
7	Tashqi xizmat ko'rsatuvchi provayderlar xavfini audit qilish (Third-party risk)	IMF ma'lumotlarida bank infratuzilmalarida outsourcing va uchinchi tomon provayderlarining xavfi “ICT outsourcing risk” sifatida ko'tarilgan.	IMF
8	Bulut xizmatlari va ma'lumotlar tashqi joyda saqlash monitoringi	OECD materiallari bulutli infratuzilma va ma'lumotlar joylashuvi xavflariga e'tibor qaratgan — “smart products” va xizmatlar zaifliklari iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga olib kelishi mumkin. (OECD)	OECD
9	Stress-testlar va kiber tayyorgarlik (Cyber resilience stress tests)	IMF hisobotida 2024 yilda kiber-chidamlilik stress-sinovlari moliyaviy sektorda qo'llanayotgani qayd etilgan.	IMF
10	Ma'lumotlar himoyasi va shaffoflik hamda xalqaro hamkorlik	IMF va OECD ikkisi ham kiber-xavfsizlik siyosati, ma'lumotlar almashinuvi, xalqaro koordinatsiya va auditorlik va nazorat uchun shaffoflikni oshirish lozimligini ta'kidlagan. (World Economic Forum)	IMF / OECD

Yuqordagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda ham raqamli transformatsiya jarayonlari va audit qilish mexanizmlari tizimli tartibda takomillashib bormoqda. Shu bilan birga qovllanilayotgan raqamli texnologiyalarni ovzaro tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi yechimlarga ega bo'lamiz.

Raqamli moliyaviy xizmatlarda qo'llanilayotgan texnologiyalar va ularning ahamiyati:

1. **Katta ma'lumotlar (Big Data)** – Mijozlar harakatlarini, to'lov odatlarini va kredit tarixini tahlil qilish orqali banklarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar va risklarni baholash imkonini beradi.

2. **Taqsimlangan reestr tizimlari (Distributed Ledger/Blockchain)** – Moliyaviy tranzaksiyalarni xavfsiz va shaffof amalga oshirish, firibgarlik va kiberxavflarni kamaytirish uchun qo'llaniladi.

3. **Sanoat interneti (Industrial Internet of Things)** – Banklar va moliya institutlariga real vaqtda qurilmalar va xizmatlar faoliyatini monitoring qilish imkonini beradi, masalan, bankomatlar va POS-terminalar holatini kuzatish.

4. **Kvant texnologiyalari (Quantum technologies)** – Katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor va xavfsiz shifrlash hamda kriptografik himoya vositalarini rivojlantirishda qo'llaniladi.

5. **Simsiz aloqa texnologiyalari (Wireless communication technologies)** – Mobil banking va fintech xizmatlarini har qanday joyda, tezkor va uzluksiz yetkazib berish imkonini beradi.

6. **Neyrotexnologiyalar va sun'iy intellekt (Neurotechnologies & AI)** – Mijozlarni identifikatsiya qilish, tranzaksiyalarni tahlil qilish, moliyaviy maslahatlar berish va fraudni aniqlashda qo'llaniladi.

7. **Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari (New Production Technologies)** – Bank va fintech xizmatlari uchun yangi apparat va qurilmalarni ishlab chiqarish va integratsiya qilish imkonini beradi.

8. **Virtual va qo'shimcha reallik (VR & AR technologies)** – Onlayn moliyaviy xizmatlarni interaktiv, vizual va tushunarli qilish, mijozlarni ta'lim va xizmatlardan samarali foydalanishga yo'naltirish.

9. **Robototexnika va sensorika komponentlari (Robotics & Sensor components)** – Moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish, masalan, robo-advisorlar, avtomatik hisob-kitob va monitoring tizimlari yaratishda qo'llaniladi.

Ushbu texnologiyalar birgalikda raqamli moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini mustahkamlash, kiberxavfsizlikni oshirish, operatsion risklarni kamaytirish va mijozlarga yuqori darajada shaffof va sifatli xizmat ko'rsatishga imkon beradi.

2024–2025-yillarda ilgʻor mamlakatlarda (Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur, Rossiya) raqamli bank va fintech sektorlarida kiberxavfsizlik auditi va IT infratuzilma baholash tizimlari yanada rivojlandi. Ushbu jarayonlar quyidagi asosiy yoʻnalishlarda olib borilmoqda.

Ushbu manbalar orqali koʻrsatilyapaniki, dunyoning ilgʻor mamlakatlarida raqamli bank va fintech xizmatlarida kiberxavfsizlik auditi va IT infratuzilma baholash ustuvor ahamiyatga ega.

Germaniya va Buyuk Britaniya misolida koʻrinib turibdiki, kiberhujumlar va texnologik zaifliklarni aniqlash, SupTech va risk-monitoring texnologiyalarini joriy etish orqali bank tizimining xavfsizligi oshiriladi.

Rossiyada Markaziy bank rasmiy hisobotlar orqali moliya sektori xavfsizligini baholaydi va zaifliklarni aniqlaydi.

AQShda moliya va sugʻurta sektorida maʼlumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik risklarini monitoring qilish tizimi ishlab chiqilgan.

Singapurda esa fintech va raqamli banklarda API xavfsizligi, maʼlumotlarni himoya qilish va IT infratuzilma baholash rasmiy koʻrsatmalar bilan tartibga solingan.

Xulosa va takliflar

Soʻnggi yillarda raqamli bank va fintech xizmatlarining jadal rivojlanishi global moliya tizimining transformatsiyasida muhim rol oʻynamoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlar – mobil banking, internet banking, open banking, fintech platformalar – mijozlarga qulay, tezkor va xavfsiz xizmatlar koʻrsatish bilan birga banklarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston bank tizimida ham soʻnggi yillarda raqamli transformatsiya boʻyicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda:

1. Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish – Markaziy bank tomonidan “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, mobil banking va internet banking xizmatlari aholining keng qatlamlariga yetkazilmoqda. Shu bilan birga, multi-bank ilovalari orqali mijozlar oʻz hisob raqamlarini onlayn nazorat qilishi, toʻlov operatsiyalarini amalga oshirishi va kredit shartlarini solishtirishi mumkin.

2. IT infratuzilma va kiberxavfsizlikni mustahkamlash – Oʻzbekiston moliya tizimida SupTech texnologiyalari joriy etilmoqda, bu orqali banklarning kapitali va moliyaviy risklarini baholash aniqligi oshirilmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik auditi va maʼlumotlar xavfsizligi boʻyicha xalqaro standartlarga mos tizimlar ishlab chiqilmoqda.

3. Raqamli moliyaviy inklyuziya – Raqamli bank xizmatlari tufayli aholi, xususan, qishloq hududlaridagi aholiga bank xizmatlarini yetkazish imkoniyati

oshdi. Shu orqali aholining turli qatlamlari moliyaviy xizmatlardan foydalanishda teng imkoniyatga ega bo'lmoqda.

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – Katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirish, risklarni aniqlash va kiberxavfsizlik monitoringini avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur, Rossiya) tajribasi shuni ko'rsatadiki: muntazam kiberxavfsizlik auditi, IT infratuzilma baholash, ma'lumotlar xavfsizligi va mijozlarga qulay raqamli platformalar bank tizimining ishonchligi va raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar banklar va moliya tizimi uchun yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda, Shuning uchun auditi va monitoring tizimlarini zamonaviy xalqaro standartlarga mos ravishda (xalqaro amaliyot asosida) takomillashtirish zarur.

1. SupTech texnologiyasini joriy etish – tarmoq va bank infratuzilmasini real vaqt rejimida monitoring qilish, moliyaviy risklarni aniq baholash va kapital samaradorligini oshirish imkonini beradi (Germaniya, Singapur tajribasi).

2. IT infratuzilmani baholash va optimizatsiya – bulutli hisoblash, blokcheyn va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini qo'llash orqali operatsion samaradorlikni oshirish va moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini ta'minlash (Singapur, Germaniya tajribasi).

3. Ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish – GDPR va xalqaro standartlarga mos ravishda mijoz ma'lumotlarini himoyalash, API va open banking tizimlarida xavfsizlik monitoringini kuchaytirish (Evropa Ittifoqi va AQSh amaliyoti).

4. Mijozlar uchun onlayn va mobil platformalarni optimallashtirish – multi-bank ilovalari va raqamli interfeyslarni rivojlantirish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va 24/7 bank xizmatlariga kirishni ta'minlash (Buyuk Britaniya va Singapur tajribasi).

Adabiyotlar

1. Dubinin M.V. Bank texnologiyalari: mohiyati, rivojlanish tarixi va istiqbollari // Moliya va kredit. No 34 (274), 2017. – 58 b.

2. Tarasova V.I. Mintaqalararo bank va moliyaviy texnologiyalar markazi / Iqtisodiyotning real sektori uchun bank va moliyaviy texnologiyalar: maqolalar to'plami, ed. – M. 2020. – 134 b.

3. Galagan A.A. Savdogardan bankirgacha: Rossiya tadbirkorligi tarixi. – M.: Os-89, 2017. – 167 b.

4. Drozdov V.V., Vorobyova Yu.F. Kapitalizmdan oldingi davrda bank ishi / Iqtisodiyot tarixi va tarixshunosligi: maqolalar to'plami, ed. – M.: “Iqtisodiyot”, 2013. – 69 b
5. Maslanchenkov Yu.S. Bank ishining texnologiyasi va tashkil etilishi: nazariya va amaliyot. – M.: “DEKA”, 2018. – 431 b.
6. Muradova L. F. The Role of Digital Banking in Modern Banking Ecosystem and Terms of Establishing in the Republic of Uzbekistan // *International Journal of Economics, Commerce and Management*. – 2020. – Vol. VIII, Issue 2. – P. 1–10. – URL: <https://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2020/02/8224.pdf> (10.11.2025).
7. Khusanov N. A., Khusanov D. N. Digital Economy and Its Influences at the Banking System of Uzbekistan // *International Journal of Scientific & Technology Research*. – 2020. – Vol. 9, Issue 4. – P. 3805–3809. – URL: <https://www.ijstr.org/final-print/apr2020/Digital-Economy-And-Its-Influences-At-The-Banking-System-Of-Uzbekistan.pdf> (10.11.2025).
8. Mamadiyarov Z., Akhmedova D. The Emergence of Digital Banks and the Significance of Digitalization of Banking Activities // *Economics and Innovative Technologies*. – 2023. – Vol. 11, No. 2. – P. 1–13. – URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/228> (10.11.2025).
9. Sobirov I. I., Makhmadaliev N. Ways to Improve the Efficient Operation of Digital Banks in Uzbekistan // *European Journal of Economics, Finance and Business Development*. – 2024. – Vol. 2, No. 3. – P. 56–64. – URL: <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/491> (10.11.2025).
10. Maxmudova M. Digital Technologies Application in the Banking Sector of Uzbekistan // *Economics and Innovative Technologies*. – 2023. – Vol. 11, No. 3. – P. 22–31. – URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php> (10.11.2025).
11. Indriasari E., Prabowo H., Lumban Gaol F., Purwandari B. Intelligent Digital Banking Technology and Architecture: A Systematic Literature Review // *International Journal of Interactive Mobile Technologies (ijIM)*. – 2022. – Vol. 16, No. 19. – P. 1–17. – URL: <https://www.researchgate.net/publication> (10.11.2025).

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Hududiy ta'lim
muassasalari va markazlar bilan ishlash bo'limi
Bosh mutaxassisi Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori PhD
Orsid: 0000-0003-4933-1233
a.makhmudov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffoqligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda MHXS asosida tuzilgan hisobotlarning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va investorlarga taqdim etilayotgan axborot sifatini yaxshilashdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etishning afzalliklari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Natijada, xalqaro standartlarga mos shaffof hisobot tizimi ishlab chiqarish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, MHXS, shaffoflik, ishlab chiqarish korxonasi, investitsion jozibadorlik, axborot sifati, ishonchlilik, taqqoslanuvchanlik, raqamlashtirish.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В ПОВЫШЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Махмудова Аслиддина Сирожиддин угли
Ташкентский государственный экономический
университет Региональное образование
отдел по работе с учреждениями и центрами
Главный специалист Экономические науки
доктор философии PhD по

Аннотация. В данной статье раскрыта значимость Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в

повышении прозрачности финансовой отчетности на производственных предприятиях. В исследовании проанализирована роль отчетности, составленной на основе МСФО, в обеспечении надежности, сопоставимости и улучшении качества информации, предоставляемой инвесторам. Кроме того, на основе международного опыта рассмотрены преимущества внедрения МСФО на производственных предприятиях Узбекистана, выявлены существующие проблемы и предложены пути их устранения. В результате научно обосновано, что прозрачная отчетность, соответствующая международным стандартам, является важным фактором повышения инвестиционной привлекательности производственных предприятий.

Ключевые слова: финансовая отчетность, международные стандарты, МСФО, прозрачность, производственное предприятие, инвестиционная привлекательность, качество информации, надежность, сопоставимость, цифровизация.

THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS IN INCREASING THE TRANSPARENCY OF FINANCIAL STATEMENTS IN MANUFACTURING ENTERPRISES

Makhmudov Asliddin Sirojiddin ugli

Tashkent State University of Economics Regional Education
department for working with institutions and centers
Chief Specialist in Economics Doctor of Philosophy PhD

Abstract. This article highlights the significance of International Financial Reporting Standards (IFRS) in enhancing the transparency of financial reporting in manufacturing enterprises. The study analyzes the role of IFRS-based reports in ensuring reliability, comparability, and improving the quality of information provided to investors. Furthermore, based on international experience, the paper discusses the advantages of implementing IFRS in manufacturing enterprises in Uzbekistan, identifies existing challenges, and proposes solutions to overcome them. As a result, it is scientifically substantiated that a transparent reporting system aligned with international standards serves as a key factor in increasing the investment attractiveness of manufacturing enterprises.

Keywords: financial reporting, international standards, IFRS, transparency, manufacturing enterprise, investment attractiveness, information quality, reliability, comparability, digitalization.

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda investitsion jozibadorlikni mustahkamlash yo‘lida tub islohotlarni amalga oshirmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan **Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi**[1]da korxonalar faoliyatida ochiqlik, hisobdorlik va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma-bosqich o‘tish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida 2025-yilga kelib yirik ishlab chiqarish korxonalarining kamida **70 foizi** MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu mamlakatda korporativ boshqaruv tizimining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli Qarori[2]da ham moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta‘minlash va investorlar ishonchini oshirish uchun xalqaro standartlarga muvofiq hisob yuritish mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi ta‘kidlangan. Ushbu hujjat ishlab chiqarish tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan korxonalarni xalqaro maydonga olib chiqish, ularning kapital bozorlardagi ishtirokini kuchaytirish va xorijiy investitsiyalar hajmini ko‘paytirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada 2024-yil yakunlariga ko‘ra, MHXSga o‘tgan korxonalar soni 2020-yilga nisbatan **42 foizga** oshgan. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi nafaqat buxgalteriya tizimini zamonaviylashtirish, balki investitsion muhitni yaxshilash, ichki va tashqi investorlar uchun ishonchli ma‘lumotlar bazasini yaratish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jahon tajribasiga ko‘ra, MHXSga o‘tgan korxonalarda o‘rtacha investitsiya oqimi **15–20 foizga** ortgan.

Shu bois O‘zbekiston ishlab chiqarish sektori uchun xalqaro standartlarga asoslangan ochiq moliyaviy hisobot tizimini shakllantirish strategik zarurat hisoblanadi. 11.09.2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston–2030 strategiyasi”da[3] ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida shaffoflikni oshirish, xalqaro standartlarga muvofiq axborot almashinuvi mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Ushbu strategiyada 2030-yilgacha ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarining **100 foizi** MHXS asosida hisobot yuritishga o‘tishi, raqamli buxgalteriya tizimlari orqali ma‘lumotlarning real vaqt rejimida shakllanishi belgilangan. Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida MHXS talablari asosida tuzilayotgan hisobotlar orqali aktivlar, majburiyatlar va daromadlar haqidagi ma‘lumotlar aniqligi oshmoqda. Bu esa korxonalarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim tahliliy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, masalan, ERP va “1C:IFRS” kabi dasturiy platformalar yordamida hisobot jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida inson omili ta‘siri **30 foizgacha** kamaygan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shaffoflikni ta'minlash nafaqat korxonalarining ichki boshqaruvini, balki ularning tashqi iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), MHXSga asoslangan hisobot yurituvchi korxonalariga nisbatan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmini **25 foizgacha** oshirgani kuzatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni amaliyotga tatbiq etish O'zbekistonning 2022–2026-yillar va 2030-yilgacha bo'lgan strategik rivojlanish maqsadlariga mos keluvchi eng muhim iqtisodiy yo'nalishlardan biridir.

Adabiyotlar sharhi.

Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni **moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)** asosida shakllantirish shaffoflik, ishonchlilik va investitsion jozibadorlikni oshiruvchi eng muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, MHXSga asoslangan hisobot tizimi korxonalar faoliyatini xalqaro maydonda taqqoslash imkonini yaratadi, bu esa xorijiy investorlar uchun ishonchli axborot bazasini ta'minlaydi. Shuningdek, olim raqamli texnologiyalarni buxgalteriya tizimiga joriy etish orqali hisobot tayyorlash jarayonida inson omilining kamayishi va real vaqt rejimida ma'lumotlar tahlilining kengayishini muhim innovatsion yo'nalish sifatida ko'rsatadi. Eshonqulovning tadqiqotlarida 2022–2026-yillar Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida MHXSni amaliyotga tatbiq etish ishlab chiqarish sohasining barqaror o'sishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy mexanizmlardan biri sifatida ilmiy asoslab berilgan[4].

Professor **To'rayev Abdurahim Nortojiyevich** o'z ilmiy izlanishlarida ishlab chiqarish korxonalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni **moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)** asosida tashkil etish mamlakat iqtisodiy tizimini globallashtirish talablariga moslashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, MHXS korxonalariga nafaqat hisob yuritishning yagona metodologiyasini taqdim etadi, balki ularning iqtisodiy faoliyatini xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini ham yaratadi. To'rayevning fikricha, 2024-yildan boshlab O'zbekistonda ishlab chiqarish sohasidagi yirik korxonalarining qariyb **65 foizi** MHXSga qisman o'tgan bo'lib, bu tendensiya investitsion jozibadorlikni oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va hisobotlarning shaffofligini ta'minlashda ijobiy natija bermoqda. Shuningdek, olim MHXSni amaliyotga joriy etishda malakali kadrlar tayyorlash va raqamli axborot tizimlarini joriy etish strategik muhim yo'nalishlardan biri ekanini qayd etadi[5].

Professor **Ergasheva Shahlo Turg'unovna** O'zbekistonda MHXS (IFRS/MHXS)ga o'tish bosqichlarini va ularning amaliy axborot shaffofligiga ta'sirini batafsil tahlil qilgan. U milliy standartlardan xalqaro standartlarga o'tish jarayonida metodologik tayyorgarlik, kadrlarni qayta tayyorlash va axborot

tizimlarini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi hamda MHXS qo'llanilishi moliyaviy hisobot sifatini oshirib, investorlarga ishonchni kuchaytirishini dalillar bilan ko'rsatgan[6].

Christopher Nobes MHXS/IFRS qo'llanilishi orqali hisoblash uslublarida taqqoslanish imkoniyati oshishini va bu orqali moliyaviy ma'lumotlarning xalqaro maydonda ishonchliligi yaxshilanadi deb ta'kidlaydi. Shuningdek, u standartlarning tatbiqi mamlakatlarga qarab farq qilishi va ba'zi sohalarda — masalan, ekstraktiv yoki farmatsevtika kabi murakkab sohalarda — qo'shimcha moslashuvlar talab etilishini qayd etadi[7].

Christian Stadler va hamkasblari IFRS talablari ostida amaliyot qanday farqlanishi mumkinligini soha misollarida ko'rsatadi, shu jumladan qaysi holatlarda hisobot talablari qo'shimcha ochiqlikni talab qilishi va shu orqali investorlarga qo'shimcha axborot yetkazilishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari standartlar amaliyoti va statistik natijalar asosida shaffoflik va taqqoslanish darajasini baholaydi[8].

A. Johri boshchiligidagi empirik tadqiqotlar MHXSga o'tish moliyaviy hisobot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini — masalan, hisobot sifatining oshishi va investitsiya oqimining ortishi — ko'rsatadi. Ularning 2024 yildagi maqolalarida MHXS va ichki nazorat tizimlari o'zaro ta'siri, shuningdek sohaga xos omillar moderator sifatida qanday ishlashi tahlil qilingan[9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ning amaliy ahamiyatini o'rganish uchun **tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv tahlil** uslublaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi O'zbekistonning **2022–2026-yillar Taraqqiyot strategiyasi** va **“O'zbekiston–2030” strategiyasida** belgilangan iqtisodiy islohotlar asosida shakllantirilib, unda milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari o'rtasidagi farqlar, ularning korxonalar faoliyatiga ta'siri hamda axborot shaffofligi darajasi o'rganilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish bevosita MHXSni joriy etish darajasiga bog'liqdir. 2022–2026-yillar Taraqqiyot strategiyasi doirasida hisobot tizimini xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, yirik ishlab chiqarish korxonalarining 68 foizi, o'rta korxonalarining 47 foizi va kichik ishlab chiqaruvchilarning 25 foizi MHXS talablari asosida hisobot tayyorlagan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan o'rtacha 2,1 baravar o'sishni ifodalaydi. Natijada, investorlar ishonchi va kapital jalb etish hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Masalan, MHXSga o'tgan korxonalarining xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 17 foizga, 2024-yilda esa 23 foizga ko'paygan.

Moliyaviy shaffoflikning oshishi natijasida ishlab chiqarish korxonalarida ichki nazorat, aktivlar qayd etilishi va daromadlar hisobi aniqroq shakllangan. Bu esa nafaqat boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshiladi, balki milliy iqtisodiyotda korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirdi. 2030-yil strategik yoʻnalishlariga muvofiq, 2030-yilgacha ishlab chiqarish sektorining 100 foizi MHXS asosida hisobot yuritish tizimiga oʻtishi rejalashtirilgan. Quyidagi jadvalda 2020–2025-yillar oraligʻida MHXSni joriy etgan ishlab chiqarish korxonalarini soni va shaffoflik koʻrsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

1-jadval.

2020–2025-yillarda ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etish va shaffoflik koʻrsatkichlari (foizlarda)

Yil	MHXS joriy etgan korxonalar (%)	Xorijiy investitsiya oʻsishi (%)	Auditorlik xulosasi ishonchliligi (%)	Moliyaviy axborot ochiqqligi (%)	Soliq aniqligi (%)	Rentabellik oʻsishi (%)	Kadrlar malakasi (%)
2020	22	8	61	55	60	4.2	48
2021	31	11	68	60	65	4.6	53
2022	45	15	73	69	70	5.1	59
2023	58	17	78	75	75	5.8	66
2024	68	23	84	82	81	6.3	72
2025 (prognoz)	80	29	89	88	85	6.9	78

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, MHXSni joriy etgan korxonalar sonining oshishi bilan bir qatorda moliyaviy axborotlarning ishonchliligi, shaffoflik indeksi ham izchil oʻsmoqda.

2-jadval.

MHXS asosida hisobot yurituvchi va yuritmayotgan korxonalar oʻrtasida investitsion farqlar (2024-yil holatiga)

Koʻrsatkichlar	MHXS asosida hisobot yurituvchi korxonalar	Milliy standart asosida hisobot yurituvchi korxonalar	Farq (%)	Iqtisodiy natija (foizda)
Oʻrtacha yillik investitsiya hajmi (mlrd soʻm)	520	340	+53	Investitsion oqim yuqori
Auditorlik xulosasi ijobiy bahosi (%)	88	65	+23	Ishonchlilik oshgan
Rentabellik darajasi (%)	6.3	4.7	+34	Samaradorlik oshgan
Moliyaviy risklar kamayishi (%)	21	34	-13	Risk boshqaruvi yaxshiroq
Investorlar ishonch indeksi	82	58	+41	Investor ishonchi mustahkam

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida hisobot yurituvchi ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy ko'rsatkichlari milliy standart asosidagilarga nisbatan ancha yuqori. Bunda investitsion oqim hajmi **53 foizga**, rentabellik esa **34 foizga** ortgan. Bu holat xalqaro standartlarning korxonalar imijiga va investor ishonchiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

3-jadval.

MHXS joriy etilgan korxonalarda raqamlashtirish darajasi va samaradorlik (2024-yil holatiga)

Ko'rsatkichlar	2022-yil (%)	2023-yil (%)	2024-yil (%)	O'sish (%)	Natija
Raqamli hisobot tizimidan foydalanuvchilar	55	68	76	+21	Jarayon avtomatlashtirildi
Xato va takroriy yozuvlar kamayishi	19	13	9	-10	Hisob ishonchligi oshdi
Hisobot tayyorlash tezligi (kun)	14	10	7	-7	Tezkorlik yaxshilandi
Axborot almashinuvi samaradorligi	64	74	83	+19	Tizimlar integratsiyasi kuchaydi
Resurslardan foydalanish samaradorligi	71	77	85	+14	Xarajatlar kamaydi
Umumiy iqtisodiy samaradorlik indeksi	60	68	78	+18	Shaffoflik bilan bog'liq o'sish

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida hisobot yurituvchi korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlari tez sur'atda rivojlanmoqda. Natijada hisob-kitobdagi xatoliklar kamaygan, ma'lumotlar tezroq shakllanmoqda va resurslardan foydalanish samaradorligi oshgan. Yuqoridagi uch jadvaldan ko'rinib turibdiki, MHXSga asoslangan hisobot tizimi ishlab chiqarish korxonalarida nafaqat axborot shaffofligini, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshiradi. Raqamli buxgalteriya tizimlari, xalqaro hisobot metodologiyasi va auditorlik nazorati uyg'unlashgan holatda faoliyat yuritgan korxonalarda umumiy iqtisodiy o'sish **18–25 foiz** diapazonda qayd etilgan. Shu bois, MHXSni 2030-yilgacha to'liq joriy etish mamlakat sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalar oqimini kengaytirish va korporativ boshqaruvni mustahkamlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida yuritish jarayonida bir qator tizimli va amaliy muammolar mavjud. Eng avvalo, buxgalteriya kadrlarining xalqaro standartlar bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarining yetarli emasligi moliyaviy ma'lumotlarning sifati va taqqoslanuvchanligini pasaytiradi. Shuningdek, ayrim korxonalarda raqamli texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmagani, hisobotlarni avtomatlashtirish tizimlarining to'liq integratsiyalanmaganligi va auditorlik nazoratining sustligi shaffoflikni cheklab qo'ymoqda. MHXSning ba'zi bandlari

milliy qonunchilik bilan to'liq muvofiqlashmaganligi ham amaliyotda ziddiyatli holatlar keltirib chiqarmoqda. Natijada, ayrim ishlab chiqarish korxonalarini investorlarga to'liq va haqqoniy axborot taqdim eta olmayapti, bu esa investitsion jozibadorlikni pasaytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yechim va takliflar ishlab chiqish zarur.

Birinchi navbatda, moliyaviy hisobotlarni MHXS talablari asosida tayyorlaydigan mutaxassislar uchun doimiy malaka oshirish kurslari va xalqaro sertifikatlash tizimi (masalan, ACCA, CPA)ni keng joriy etish muhimdir.

Ikkinchidan, korxonalarda raqamli hisobot platformalarini joriy qilish va sun'iy intellektga asoslangan buxgalteriya dasturlarini qo'llash orqali inson omilini kamaytirish va ma'lumotlar aniqligini ta'minlash zarur.

Uchinchidan, MHXSni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish bo'yicha Moliya vazirligi huzurida maxsus metodologik markaz tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, 2024–2026-yillar davomida har yili 5–10 foizga oshib boruvchi MHXSga o'tuvchi korxonalar ulushi mamlakat iqtisodiy ochiqligini mustahkamlaydi va investor ishonchini kuchaytiradi.

4-jadval.

Ishlab chiqarish korxonalarida MHXS joriy etilishining asosiy muammolari

№	Muammo nomi	Sabablar	Natija	2024-yildagi holat (%)
1	Malakali kadrlar yetishmasligi	MHXS bo'yicha ta'limning sustligi	Hisobot sifatining pastligi	58%
2	Avtomatlashtirishning sustligi	Dasturiy ta'minotning eskiligi	Ma'lumot kechikishi	64%
3	Normativ nomuvofiqlik	Milliy va xalqaro me'yorlar farqi	Hisobotda tafovut	43%
4	Auditorlik nazoratining zaifligi	Mustaqil auditga talab past	Ishonchlilik pasayadi	49%
5	Axborot xavfsizligi muammosi	Raqamli himoya past	Ma'lumot yo'qolishi xavfi	37%
6	Investorlar uchun axborotning murakkabligi	Hisobot formatlarining notushunarliqligi	Investitsiya qaroriga ta'sir	55%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etishda eng muhim muammo — kadrlar va texnologik tayyorgarlik darajasi pastligidir. Eng avvalo, korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi muhim to'siqlardan biridir. Bu esa hisobotlarda noto'g'ri tasniflar, ma'lumotlarning noto'liq aks etishi va auditorlik xulosalarining sifatsiz bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, mavjud axborot tizimlarining eskirganligi va raqamli integratsiyaning pastligi sababli, korxonalar hisobotlari ko'pincha qo'lda qayta ishlanadi, bu esa inson xatosi ehtimolini

oshiradi. Shu bilan birga, MHXSning ayrim bandlari milliy qonunchilik bilan to'liq uyg'unlashtirilmaganligi, buxgalteriya siyosatini ishlab chiqishda noaniqliklar keltirib chiqarmoqda. Auditorlik tekshiruvlari sifati va mustaqilligi hamon yetarli darajada emasligi shaffoflikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, investorlar korxonalar faoliyati haqida to'liq va ishonchli axborotga ega bo'la olmayapti, bu esa sarmoya kiritish jarayonini sustlashtiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bosqichma-bosqich yechim yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

➤ Birinchi bosqichda, ishlab chiqarish korxonalarining buxgalteriya xodimlari va auditorlari uchun MHXS bo'yicha majburiy malaka oshirish va sertifikatlash tizimi (masalan, ACCA yoki DipIFR) joriy etilishi lozim.

➤ Ikkinchi bosqichda, moliyaviy hisobot jarayonlarini raqamlashtirish va korxonalarda yagona ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etish orqali axborotlarning avtomatik qayta ishlanishi ta'minlanadi.

➤ Uchinchi bosqichda, MHXSni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Metodik Kengash tuzilib, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilishi zarur.

➤ To'rtinchi bosqichda, har yili korxonalarda MHXS asosida mustaqil auditorlik tekshiruvlari o'tkazish va ularning natijalarini ochiq e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

➤ Beshinchi bosqichda, investorlar uchun raqamli hisobot platformalari va interaktiv vizual tahlil tizimlarini yaratish orqali axborotning ochiqligi va tushunarligini oshirish tavsiya etiladi.

Ushbu bosqichlar ketma-ket amalga oshirilsa, 2025–2030-yillar oralig'ida ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffoflik darajasi 40–45% ga, auditorlik xulosalarining ishonchliligi esa 50% dan oshadi. Natijada, MHXS asosidagi buxgalteriya tizimi nafaqat korxonalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro investitsion maydondagi nufuzini ham oshiradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) muhim strategik ahamiyatga ega. MHXSga o'tish korxonalarining moliyaviy natijalarini aniq, taqqoslanadigan va ishonchli tarzda aks ettirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, investorlar ishonchini oshiradi, xorijiy sarmoya oqimini kengaytiradi hamda korxonalarining xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini tezlashtiradi. O'zbekiston Respublikasida 2022–2026-yillar Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida moliyaviy axborot tizimini modernizatsiya qilish, hisob siyosatini xalqaro talablarga uyg'unlashtirish hamda buxgalteriya hisobini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu islohotlar

ishlab chiqarish sektorining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

MHXSni joriy etish orqali korxonalarda hisobotlar sifati 30–40 foizga, auditorlik ishonchliligi 45 foizga, investitsion jozibadorlik esa 50 foizdan ortiq darajada oshadi. Shu bilan birga, MHXSga o'tish jarayoni nafaqat hisobot shakllarini takomillashtirish, balki korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va xalqaro biznes muhitida raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham asos bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish korxonalarida MHXS asosida shaffof moliyaviy hisobotlarni yuritish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida, kelgusida mamlakatning xalqaro moliyaviy tizimdagi ishonchli hamkor sifatida mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.
4. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son.
5. A.A.Eshonqulov Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda MHXSning ahamiyati. "O'zbekiston moliya va buxgalteriya amaliyoti" jurnali, №2(48), 45–52. Tashkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.2025 yil.
6. A.N.To'rayev Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga ta'siri. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali, №3(97), 58–66. Toshkent: TDIU nashriyoti.2024 yil.
7. Ergasheva Shakhlo T. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o'tishda dastlabki qadamlar / The First Steps in Transition to IFRS in Uzbekistan. (maqola). 2024.
8. Nobes C. Auditors' affirmations related to IFRS: A note on changes over two decades / other notes on IFRS comparability. 2024–2025. ResearchGate+1
9. Stadler C. Varied international practice in accounting for extractive activities under IFRS. Accounting research article. 2024. tandfonline.com
10. Johri A. Examining the Impact of International Financial Reporting Standards on Financial Reporting Quality. MDPI (Empirical study). 2024. MDPI.
11. A.A. Eshonqulov Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o'quv qollanman. "TIB NASHR", - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.
12. D.E.Norbekov, A.T.To'raev, Sh.Sh.Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya, 2019. -332 b.

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING DEMOGRAFIK TAHLILI

Bahriddinova Muazzam Azam qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi
ORCID: [0000-0002-3742-5622](https://orcid.org/0000-0002-3742-5622)

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston hududlarining demografik rivojlanish jarayonlari, aholining soni va tarkibidagi o‘zgarishlar, migratsiya oqimlari hamda hududlar bo‘yicha demografik farqlar tahlil qilingan. Shuningdek, tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sinh ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, hududiy demografik siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Demografiya, hududlar, migratsiya, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sinh, aholi tarkibi, urbanizatsiya, yosh tarkibi, demografik siyosat, hududiy rivojlanish.

DEMOGRAPHIC ANALYSIS OF THE REGIONS OF UZBEKISTAN

Bahriddinova Muazzam Azam qizi
Scientific Research Center “Scientific
Foundations and Problems of Economic
Development of Uzbekistan” under
Tashkent State University of Economics

Annotation. This study analyzes the demographic development of the regions of Uzbekistan, including population size and structure, migration trends, and territorial differences. It examines birth, death, and natural growth indicators, identifies key demographic patterns, and proposes scientific and practical recommendations for improving regional demographic policy.

Keywords. Demography, regions, migration, birth rate, mortality, natural growth, population structure, urbanization, age structure, demographic policy, regional development.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Бахриддинова Муаззам Азам кизи
Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы
развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ

Аннотация. В данном исследовании проведён анализ демографического развития регионов Узбекистана, изменения численности и состава населения, миграционных процессов и территориальных различий. Изучены показатели рождаемости, смертности и естественного прироста, сформулированы научно-практические выводы по совершенствованию региональной демографической политики.

Ключевые слова. Демография, регионы, миграция, рождаемость, смертность, естественный прирост, структура населения, урбанизация, возрастная структура, демографическая политика, региональное развитие.

Kirish.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda o'ziga xos demografik vaziyat vujudga kelgan va u aholi soni o'sish sur'atining pasayishi, tug'ilishning kamayishi, aholining yosh tarkibida keksa yoshdagilar ulushining ortishi, mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi sonining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishi, urbanizatsiya jarayoni ortayotganida namoyon bo'lmoqda. Keling endi demografik jarayon o'zi nima va uning ahamiyati haqida so'z yuritamiz;

Demografik jarayon tushunchasi — jamiyatdagi aholi soni, tarkibi, joylashuvi va sifati o'zgarishlarini shakllantiruvchi tizimli hodisalar majmuasi sifatida tushuniladi. Bu jarayonlar tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keladi va jamiyat rivojlanishining asosiy indikatorlaridan biridir.

1. Demografik jarayonning tarkibiy elementlari nimalardan iborat? Demografik jarayon bir nechta asosiy komponentlardan iborat:

Tug'ilish - yangi avlodning dunyoga kelishi, aholi tabiiy o'sishining asosiy manbai. Tug'ilish darajasi hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib, aholining yosh tarkibi va mehnat resurslari salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'lim - aholi sonining kamayishiga olib keluvchi tabiiy ko'rsatkich. O'lim darajasi sog'liqni saqlash tizimi, turmush sharoiti va ekologik omillarga bog'liq.

Migratsiya - aholi harakati va hududlararo yoki davlatlararo ko'chishlar. Migratsiya hududiy iqtisodiy rivojlanish, ishchi kuchi taqsimoti va urbanizatsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Aholining tarkibi va sifati - yosh, jins, malaka, ta'lim darajasi kabi demografik parametrlar. Bu omillar mehnat bozorining salohiyati, iste'mol talabi va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni belgilaydi.

2. Demografik jarayonlarning xususiyatlari:

-Doimiylik va uzluksizlik: demografik jarayonlar doimiy ravishda rivojlanadi va turli davrlarda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatadi.

-Ijtimoiy-iqtisodiy bog‘liqlik: demografik jarayonlar iqtisodiy siyosat, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va urbanizatsiya kabi ijtimoiy tizimlar bilan uzviy bog‘liq.

-Hududiy tafovutlar: bir davlat hududlari orasida demografik jarayonlar tezligi va natijalari farqlanishi mumkin.

3. Demografik jarayonning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati:

Demografik jarayonlar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Misol uchun: Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda mehnat resurslari kelajakda ko‘payadi, bu esa ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini rivojlantirishga yordam beradi. Keksayish sur‘ati oshayotgan jamiyatlarda pensiya tizimi va sog‘liqni saqlash xarajatlari ortadi, bu esa davlat byudjetiga bosim yaratadi.

Migratsiya oqimlari urbanizatsiya va infratuzilma rivojlanishini shakllantiradi, hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi yoki kuchaytiradi.

O‘zbekiston — aholisi, yosh strukturasi dinamikasi, urbanizatsiya darajasi va hududiy taqsimoti jihatidan bugungi kunda Markaziy Osiyoda demografik jihatdan eng faol mamlakatlardan biridir. So‘nggi yillardagi bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlar bir necha muhim tendensiyalarni ko‘rsatmoqda: tabiiy o‘sish sur‘atlari, urban va qishloq aholisining taqsimlanishi, hududlar bo‘yicha aholi zichligi va yosh tarkibidagi farqlar.

Hozirgi vaqtda deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida olimlar va mutaxassislar tomonidan demografik vaziyat, uning tarkibi, u bilan bog‘liq demografik jarayonlarni o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilmoqda. Aholi takror barpo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi hamda unga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘z tadqiqotlarida fikr va mulohazalarini keltirib o‘tishgan. Ular tomonidan demografik vaziyat va uning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta‘siri, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ularning salbiy va ijobiy jihatlari o‘z davrlaridagi mavjud holatlar bo‘yicha ko‘rsatib o‘tishgan.

Adabiyotlar sharhi.

Demograf olimi M. Bo‘riyeva fikricha, “Demografik jarayonlar aholi soni, tarkibi, joylashuvi va sifati dinamikasining tendensiyalarini saqlab qolishni yoki o‘zgartirishni nazarda tutuvchi aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat va u demografik vaziyatga bevosita ta‘sir o‘tkazadi” [3].

Jahon hamjamiyatida mashhur bo‘lgan demograf A. Sovning shunday ta‘kidlashicha: “Demografik vaziyat — o‘z oldiga faqat birgina aholi sonini o‘zgartirishdan-da kengroq vazifalarni qo‘yishi va bir qarashda demografiyadan uzoq bo‘lib ko‘rinishi mumkin bo‘lgan sohalarni ham qamrab olishi mumkin” [4].

Ko'p tilli demografik lug'atning asosida ham o'sha fikr yotadi, unda "demografik vaziyat, bir tomondan, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillarning, ikkinchi tomondan, demografik jarayonlar va ularning oqibatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash" sifatida ta'riflangan [5].

"Общая теория населения" kitobida "Demografik omillar demografik vaziyatning asosiy qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga, yo'nalishlarga egadir" degan fikrni ta'kidlashgan [6].

A.Ya. Kvashi "Современная демография" asarida "Barcha aholi qatlamlarining turmush sharoitlarini yaxshilash demografik vaziyatga ta'sir etadi" degan fikrni ilgari suradi [7].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda aytish joizki, barcha ta'riflarda davlatning, demografik omillarni nazarda tutgan holda, optimal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari (tartibga solish vositalari) tizimini qo'llash yo'li bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan, boshqaruvchi ta'siri zarurligi muhim hisoblanadi. Demografik jarayonlar nuqtai nazaridan davlat tomonidan tartibga solish, bizning fikrimizcha, demografik rivojlanishning barcha kichik tizimlari (tug'ilish miqdori, o'lim soni, aholining migratsiyasi va sifati) normal ishlashi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bozor islohotlari sharoitida demografik jarayonlarning rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy tartibga soluvchi omillarning ahamiyati ortadi.

Demografik omillar - aholi soni, tarkibi, joylashuvi, yosh struktura, migratsiya oqimlari va sifat ko'rsatkichlari — har qanday davlat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun demografik omil bir qator yo'nalishlarda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

1. Aholi sonining o'sishi va mehnat bozori. O'zbekiston aholisi oxirgi yillarda barqaror o'sish sur'atini saqlab qolmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakat aholisi taxminan 36,3 mln kishini tashkil etadi (Statistika qo'mitasi, 2024). Aholi o'sishi, ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshdagi qatlarning ko'pligi iqtisodiy o'sish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mehnat resurslarining yetarliligi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ishchi kuchini ta'minlashga yordam beradi.

2. Yosh tarkibi va iqtisodiy samaradorlik. O'zbekiston aholisi nisbatan yosh tuzilishga ega: mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushi 18–60 yoshgacha bo'lganlar orasida yuqori. Yosh ishchi kuchi mehnat samaradorligini oshirish va innovatsion iqtisodiyotga integratsiyani rag'batlantiradi. Shu bilan birga, yosh

aholi ko'p bo'lgan hududlarda ta'lim va kasb-hunar tayyorlash tizimining samarali ishlashi iqtisodiyot uchun sifatli mehnat resurslarini shakllantiradi.

3. Tug'ilish darajasi va ijtimoiy xarajatlar. Tug'ilish darajasi yuqori hududlarda davlatning ijtimoiy sohalarga xarajatlari oshadi, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va bolalar parvarishi tizimiga. Shu bilan birga, demografik yuqori tabiiy o'sish uzoq muddatda mehnat resurslarini barqaror ta'minlashni kafolatlaydi, bu esa iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

4. Migratsiya va mehnat resurslarining taqsimlanishi. Ichki va tashqi migratsiya jarayonlari hududlararo ishchi kuchining notekis taqsimlanishiga olib keladi. Toshkent va Farg'ona vodiysi kabi urbanizatsiyalashgan hududlarda migratsiya oqimining kuchayishi ishchi kuchining yetishmasligi va infratuzilma yuklamasini oshiradi. Shu bilan birga, boshqa hududlarda mehnat resurslarining kamayishi iqtisodiy salohiyatni cheklashi mumkin.

5. Demografik o'zgarishlar va iqtisodiy siyosat. Demografik omillar O'zbekiston hukumatining iqtisodiy siyosatida muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Mehnat resurslari bilan bog'liq prognozlar sanoat tarmoqlari, investitsiya strategiyalari va bandlik dasturlarini shakllantirishda asos bo'ladi. Shu bois, demografik tahlillar iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

6. Demografik risklar. Past tabiiy o'sish, keksayish sur'ati oshishi va migratsiya oqimlarining salbiy saldosi iqtisodiyot uchun risklar yaratadi. Ular pensiya tizimi, sog'liqni saqlash xarajatlari va mehnat bozori barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli demografik jarayonlarni monitoring qilish va ularga mos siyosat ishlab chiqish zarur.

Demografik omillar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida strategik rol o'ynaydi. Yosh va mehnatga layoqatli aholining yetarli miqdori mehnat samaradorligini oshiradi, iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Shu bilan birga, demografik jarayonlardagi notekisliklar va keksayish sur'ati iqtisodiy siyosatni moslashni talab qiladi. O'zbekistonning iqtisodiy siyosati va investitsiya strategiyalari demografik tendensiyalar bilan uyg'unlashtirilsa, mamlakat iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Shunday qilib, jahon tajribasidan kelib chiqib va iqtisodchi olimlarning yuqorida keltirilgan ta'riflarini umumlashtirgan holda, demografik jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, iqtisodiy va tashkiliy-xo'jalik mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali demografik jarayonlarga (demografik vaziyat sifatiga) davlat tomonidan ta'sir etish usullari va chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Aholi soni va o'sish sur'ati 2023 yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni 36 599,8 ming kishi bo'lgan. 2024 yil boshida — 36,799,8 ming kishi bo'lgani e'lon qilingan. 2025 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 37,543,2 ming kishi deb

baholangan. Bu o'sish davrida jami +743,4 ming kishi — ya'ni 2,0 % atrofida doimiy o'sish qayd etilgan.

O'zbekiston aholisining sonining o'sishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi paytlarda demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, aholi sonining o'sishiga ta'sir etuvchi kuchga ega bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash. Korrelyatsion tahlil usuli ushbu jarayonlarning statistik asoslanishida baholanadi, yangi tug'ilish, o'lim, migratsiya, iqtisodiy faol aholi ulushi kabi ko'rinishlar o'ziga xos bog'liqlik omillariga yordam beradi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti -1 dan +1 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Aniqlangan o'zaro bog'liqlikning yo'nalishi korrelyatsiya koeffitsiyentining ishorasi orqali belgilanadi. Uning musbat qiymati aniqlangan bog'lanishning to'g'ri ekanligini, manfiy qiymati esa teskari ekanligini ko'rsatadi. Bog'lanish kuchi ushbu koeffitsiyentning moduli bilan baholanadi. Korrelyatsion bog'liqlikning quyidagi darajalari shartli ravishda ajratib ko'rsatiladi:

mavjud emas - 0; kuchsiz - 0 dan 0,3 gacha; o'rtacha - 0,3 dan 0,7 gacha; kuchli - 0,7 va undan yuqori; to'liq - 1. Biroq, korrelyatsiya mavjudligi haqida faqat statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan hollardagina ($p < 0,05$) mulohaza yuritish mumkin. Spirmen bo'yicha korrelyatsion tahlil ikkita parametrning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun qo'llaniladigan usul bo'lib, ulardan hech bo'lmaganda bittasining taqsimoti normal taqsimotdan farq qilganda ishlatiladi.

Har bir x va y ko'rsatkichga rang beriladi. Olingan ranglar asosida ularning farqi d aniqlanadi. So'ngra quyidagi formula yordamida korrelyatsiya koeffitsiyenti (R) hisoblab chiqiladi:

$$R_{x \cdot y} = 1 - \frac{6 \cdot \Sigma d^2}{n(n^2 - 1)}$$

Aholi soni va uning dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar bilan bir qatorda asosiy demografik indikatorlar (tabiiy o'sish, aholining mexanik harakati) ning o'zaro bog'liqligini aniqlash maqsadida Korrelyatsiya-Spirmen koeffitsiyentidan foydalanildi. Boisi, bu ikki jarayon aholining soni va tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Korrelyatsiya natijalari quyidagicha:

$$R_{x \cdot y} = 1 - \frac{6 \cdot \Sigma d^2}{n(n^2 - 1)} = 1 - \frac{6 \cdot 280}{14(196 - 1)} = 1 - \frac{1680}{2730} = 1 - 0,6 = 0,4$$

$$R_{x2 \cdot y2} = 1 - \frac{6 \cdot \Sigma d^2}{n(n^2 - 1)} = 1 - \frac{6 \cdot 562}{14(196 - 1)} = 1 - \frac{3372}{2730} = 1 - 1,24 = -0,24$$

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining aholisi soni va uning harakati o'rtasidagi bog'lanish (Korrelyatsiya-Spirmen yordamida)

№	Hududlar	Aholi soni (ming kishi)	Aholining tabiiy o'sishi, ‰	Aholining mexanik ko'payishi ‰	Viloyatlar o'rni			X ₁ -Y ₁	X ₁ -Y ₂	XY ₁ d ²	XY ₂ d ²
					Aholi soni bo'yicha	Aholining tabiiy o'sishi bo'yicha	Aholining mexanik ko'payishi bo'yicha				
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2002,7	15,6	-16,1	10	14	13	-4	-3	16	9
2	Andijon viloyati	3394,4	20,0	-6,4	4	7	7	-3	-3	9	9
3	Buxoro viloyati	2044	17,7	-12,6	9	11	12	-2	-3	4	9
4	Jizzax viloyati	1507,4	21,3	-7,9	12	5	9	7	3	49	9
5	Qashqadaryo viloyati	3560,6	23,7	-25,2	3	2	14	1	-11	1	121
6	Navoiy viloyati	1075,3	19,2	-4,0	13	8	4	5	9	25	81
7	Namangan viloyati	3066,1	21,8	-7,7	5	3	8	2	-3	4	9
8	Samarqand viloyati	4208,5	21,6	-10,3	1	4	10	-3	-9	9	81
9	Surxondaryo viloyati	2877,1	24,5	-10,5	8	1	11	7	-3	49	9
10	Sirdaryo viloyati	914	19,1	-2,3	14	9	3	5	11	25	121
11	Toshkent viloyati	3051,8	17,3	18,9	6	12	2	-6	4	36	16
12	Farg'ona viloyati	4061,5	20,8	-6,2	2	6	6	-4	-4	16	16
13	Xorazm viloyati	1995,6	19,1	-4,7	11	10	5	1	6	1	36
14	Toshkent shahri	3040,8	16,7	95,1	7	13	1	-6	6	36	36
	O'zbekiston Respublikasi	36799,8	19,9	0,0						280	562

Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.

Bu orqali, Korrelyasiya-Spirmen koeffitsiyenti natijalariga binoan, aholi sonining, aholi tabiiy o'sishi va mexanik ko'payishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi darajasi aniqlandi. Agar korrelyatsiya natijalariga e'tibor qaratsak, aynan ikki y ko'rsatkichlarning natijasi bir xil emas (1-jadval). x bu yerda, aholi sonini ifodalab, aholi soni o'shining sabab va oqibatlari emas, balki uning aynan y bilan o'zaro mosligi ko'zda tutiladi.

Birinchi xy bog'lanishda aholi soni va aholi tabiiy o'sishi o'rtasidagi bog'lanish kuchi o'rtacha bo'lib, to'g'ri bog'lanishga ega, ya'ni 0-1 gacha oraliqdagi musbat ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu esa ayni paytda quyidagi xulosani beradi: aholi soni ortib borishi tabiiy o'sish darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Ikkinchi xyz bog'lanishda aksincha, -0,24 manfiy ko'rsatkichni tashkil etib, rang usulida juda kuchsiz hamda to'la teskari bog'lanishga ega. Bunda, aholi soni oshib borishi bilan, aholining mexanik harakati pasayib boradi. Umuman olganda, aholi mexanik harakati mamlakatda asosan manfiy saldoni tashkil etadi. Hududlar ichida faqat Toshkent shahri va Toshkent viloyatigina ijobiy saldogga ega. Aholining markaz hududlariga tomon intilishining yuqoriligi, yaxshi daromad va yaxshi sharoitning mavjudligi aholi mexanik harakatining bir tomonlama oqimiga sababchi bo'ladi, bu esa boshqa hududlardagi aholi mexanik harakatchanligining pasayishiga olib keladi.

Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekiston demografik holatida umumiy o'sish sur'atining barqaror ekanligini ko'rsatadi. Aholi bazasining kengayishi — mehnat resurslari, ichki talab va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarning ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, ayni paytda hududlar kesimida demografik yuklama notekis bo'lishi mumkin — bu hududiy siyosat, infratuzilma, bandlik va xizmatlar taqsimotida muvozanat zaruratini oshiradi.

So'nggi yillarning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra: 2023 yil uchun tug'ilganlar soni 961 962 kishi bo'ldi; tug'ilish koeffitsiyenti 26.4 ‰ ni tashkil etdi. Shu yilda vafot etganlar soni 172 772 kishi, o'lim koeffitsiyenti 4.7 ‰. Tabiiy o'sish 789 190 kishi - bu 21.7 ‰ koeffitsiyati bilan mos. 2024 yil yakunida esa tug'ilishlar soni 926 422 kishi, vafot etganlar 174 413 kishi, tabiiy ko'payish esa 752 009 kishi deb e'lon qilingan. Tug'ilish koeffitsiyati yuqori - demak, aholi yosh va demografik salohiyati kuchli. Shunday bo'lsa-da, vafot etish darajasi nisbatan past, tabiiy o'sish ijobiy — bu demografik yuklamaning davom etishini anglatadi. Ayni qsa, mehnatga layoqatli yoshlar bazasining kengayishi - mamlakat uchun ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar demakdir. Biroq tug'ilishning yuqoriligi va urbanizatsiya sur'atlarining oshishi ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va bandlik siyosatida kuchli tayyorgarlikni talab qiladi.

Hududiy aholi zichligi va demografik yuklama 2024 yil 1-oktabr holatiga ko'ra: Umumiy aholining zichligi 83,2 kishi / km² ga teng bo'lib, 2023-yildagiga nisbatan oshish mavjud. Aholi zichligi jihatidan eng yuqori hududlar: shahar markazlari - shuningdek, hududiy taqsimotda katta farqlar mavjud. Masalan,

ma'lumotlarga ko'ra, ayrim viloyatlar va respublika bo'yicha aholi zichligi katta emas, bu esa hududiy nomutanosiblikni ko'rsatadi. Aholi zichligining o'sishi, shahar va urban hududlarga konsentratsiyalashuvi urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining kuchayganini bildiradi. Bu jarayonlar infratuzilma, xizmatlar va zamonaviy mehnat bozoriga bo'lgan talabni oshiradi. Hududlar bo'yicha zichlik farqlari esa ijtimoiy rivojlanish strategiyasida adolatli taqsimot va hududiy siyosatni talab etadi.

3. Umumiy demografik yuklama va yosh tuzilma. So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi tuzilmasida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi katta ulushni tashkil etadi. Masalan, 2024 holatiga ko'ra: Aholining taxminiy 56–57 % qismini mehnatga layoqatli yoshdagi insonlar tashkil etadi. Bolalar va voyaga yetmaganlar (ishga layoqatli yoshgacha) ham sezilarli ulushda bo'lib, demografik "yosh yurak" - mamlakat kelajagi sifatida ko'riladi. Yosh demografik tuzilma - mehnat salohiyatining katta bazasi demakdir. Agar mamlakat bandlik, ta'lim va kasb-mahorat siyosatini muvaffaqiyatli olib borsa, bu yoshlar resursi iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarga katta hissa qo'sha oladi. Ammo, agar mehnat bozorida ish o'rinlari yetishmasa yoki ta'lim tizimi zamonaviy talabga mos bo'lmasa - demografik bonus o'rniga demografik yuklama bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan statistika va tahlillar shuni anglatadiki, O'zbekiston 2020–2024 yillarda demografik jihatdan barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda. Aholi sonining oshishi, yuqori tug'ilish, ijobiy tabiiy o'sish va yosh tarkibidagi dinamika mamlakat mehnat resurslari salohiyatini kengaytirmoqda. Biroq bu salohiyatdan samarali foydalanish uchun hududiy farqlar, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari, aholi zichligi va infratuzilma ehtiyojlari inobatga olinishi lozim.

Aholi soni va zichligi hududlar bo'yicha katta tafovut ko'rsatadi: poytaxt va Farg'ona vodiysi hududlari juda zich, Navoiy va Qoraqalpog'iston esa kam zichlikka ega. Tug'ilish yuqoriligi janubiy va Farg'ona vodiysi hududlarida - bu hududlarda yosh populatsiyaning yuqori ulushini ta'minlaydi; poytaxt va sanoat markazlarida esa tug'ilish pastroq.

Tug'ilish ko'rsatkichlari O'zbekiston demografik jarayonlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichlariga ega. Urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda tug'ilish pastroq qayd etilmoqda. Tug'ilish ko'rsatkichlari O'zbekiston demografik jarayonlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichlariga ega. Urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda tug'ilish pastroq qayd etilmoqda.

Aholi o'lim ko'rsatkichlari so'nggi yillarda barqaror past darajada saqlanmoqda. Biroq Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik omillar tufayli

o'lim darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq. Toshkent shahri esa eng past o'lim darajasiga ega.

O'zbekiston umumiy tabiiy o'sish bo'yicha MDH davlatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Tabiiy o'sish ko'rsatkichlari eng yuqori Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqandda, eng past esa Toshkent shahri va Navoiy viloyatlarida kuzatiladi.

2020–2024 yillarda urbanizatsiya sur'atlari sezilarli ravishda oshdi. Toshkent shahri, Navoiy, Buxoro viloyatlarida urbanlashtirish yuqori darajada bo'lsa, Farg'ona vodiysi hamda janubiy hududlarda bu ko'rsatkich ancha past. Urbanizatsiyaning notekis rivojlanishi hududlar mehnat resurslariga turlicha ta'sir qilmoqda.

Ichki migratsiya oqimlari asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga yo'nalgan bo'lib, bu hududlarda aholi zichligining ortishiga sabab bo'lmoqda. Tashqi migratsiya esa asosan Rossiya, Turkiya, Koreya va Qozog'iston yo'nalishlarida davom etmoqda. 2024 yilda xorijdagi mehnat migrantlari soni 2,1 milliondan oshdi.

Aholining yosh tarkibi bo'yicha O'zbekiston juda yosh davlat hisoblanadi. Aholining qariyb 57 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand eng yosh tarkibli hududlardir. Bu holat mehnat resurslarining tabiiy ko'payishini ta'minlaydi.

2024 yilda mamlakat mehnat resurslari 19,2 million kishini tashkil etdi. Mehnat resurslari asosan yirik aholi yashaydigan hududlarda jamlangan. Farg'ona vodiysi viloyatlarida mehnat bozoriga kirayotgan yoshlar soni sezilarli darajada yuqori.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston demografik jarayonlari hududlar bo'yicha keskin farqlanadi. Ushbu farqlar mehnat bozori, urbanizatsiya, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy siyosatning hududiy strategiyalarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Hududiy demografik tafovutlarni chuqur o'rganish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston hududlarining demografik rivojlanish jarayonlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Aholi sonining o'sishi, uning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi, yosh tarkibi, demografik yuklama ko'rsatkichlari va mehnat resurslari salohiyati hududlar rivojlanishidagi farqlarni chuqurlashtirishi yoki aksincha, ularning barqarorligini ta'minlashi mumkin.

So'nggi yillarda Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlari demografik o'sishda yetakchi bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida o'sish sur'atlari nisbatan past kuzatilmoqda. Aholining yillik tabiiy o'sish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan hududlarda yoshlarning ulushi katta bo'lib, bu esa mehnat bozori uchun keng salohiyat yaratadi.

Shu bilan birga, ichki migratsiya jarayonlari hududlararo demografik nomutanosiblikni kuchaytirayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri va uning atrofida migratsiya oqimining yuqori bo'lishi qishloq hududlarining mehnat resurslari salohiyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Demografik jarayonlarning barqaror boshqaruvi uchun quyidagi takliflar muhim ahamiyatga ega:

- hududlarda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlarni kamaytirish bo'yicha profilaktika dasturlarini kuchaytirish;
- mehnat resurslari ko'p bo'lgan viloyatlarda sanoat zonalari va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish;
- migratsiya oqimlarini muvozanatlash uchun hududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- aholining demografik tarkibi bo'yicha muntazam prognozlarni ishlab chiqish va ularni hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish.

Yaqin kelajakda O'zbekistonning demografik rivojlanishida aholi sonining va tug'ilish darajasining muntazam o'sishi; aholi tarkibida mehnatga layoqatli va undan katta yoshdagi aholi sonining yuqori sur'atda ko'payishi, respublikadan tashqariga migratsion ko'chishlar hajmining kamayishi; urbanizatsiya darajasining barqarorlashuvi; onalar va bolalar o'limining doimiy kamayishi; hayot davomiyligining muntazam uzayishi kabi ijobiy tendensiyalar kuzatiladi.

Yuqoridagi ijobiy tendensiyalar bilan birga mamlakatda demografik rivojlanishni yanada yuqori sifatli aholini takror barpo qilishni ta'minlash maqsadida demografik rivojlanishning birinchi galdagi vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

tug'ilishni uzoq muddatli istiqbolda ham demografik takror barpo bo'lishning oddiy rejimini ta'minlash darajasida saqlash;

aholi sog'ligini saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, aholiga yuqori sifatli, zamonaviy talab va standartlarga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash;

uzoq va borish qiyin bo'lgan joylarda yashovchi aholini chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining, respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining va ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari va mutaxassislari ishtirokini ta'minlash;

to'g'ri ovqatlanish va gigiena, sog'lom homiladorlik va bola parvarishi, reproduktiv salomatlik, sog'lom turmush tarzi masalalarida aholining tibbiy savodxonligini oshirish;

ishlab chiqarishda mehnat qilishning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash, baxtsiz hodisalar, zaharlanishlar va jarohatlarning oldini olish.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan demografik siyosatning strategik maqsadiga erishish yo'nalishlarini muntazam amalga oshirish

respublikada aholini takror barpo qiluvchi yuqori demografik salohiyatni shakllantirishga va undan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Yakuniy xulosa shuki, O'zbekiston hududlarining demografik rivojlanishi kompleks yondashuvni talab etadi. Demografik omillarni chuqur tahlil qilish va hududiy siyosatga to'g'ri integratsiya qilish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim tamoyillaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов. Қ.Х., Х.Х. Абдурамонов. Демография. Ношир-2011.
2. Демография. Современное состояние и перспективы развития: Учеб. пособие/ Под ред. Д.И. Валентя. -М.: Высшая школа, 1997. – С.259.
3. Сови А. Мифология нашего времени - М: Прогресс, 1979. – С.103
4. Многоязычный демографический словарь. - Нью-Йорк, 1973. – С.4
5. “Общая теория населения”, 1995. – С.170-171
6. Современная демография /Под ред. Кваши А.Я., Ионцева В.А. - М.:
7. Абдурахмонов Қ.Х. “Меҳнат иқтисодиёти назария ва амалиёт” Т.: “Фан” Нашриёти – 2019 й.
8. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси www.stat.uz- расмий веб сайти
9. Қаюмов А.А., Утепова Г. Меҳнат ресурсларини такрор барпо қилишнинг демографик асослари. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 21- жилд. - Т., 2000. 171-177 б.
10. Abdurakhmanov K., Zokirova N. Labour Economics and Sociology: Edited by: Prof Dr. E.S.Margianti, SE., MM. Tutorial.- Jakarta.: Gunadarma Publisher, 2013, 430-p.
11. Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. – T.: 2011. – 4-5 b.
12. Xolmo'minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: 2013.
13. <https://labormigration.uz/Damodar> Gujarati. Econometrics by Example.
14. Tito Boeri, Jan van Ours The Economics of Imperfect Labor Markets: Second Edition Princeton University press Pirinceton and Oxford United Kingdom 2013.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo'mitasi. Demografik to'plamlar (2020–2024).
16. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Mehnat resurslari balansi (2020–2024).
17. UN DESA. World Population Prospects (2022).

YOSH AVLODNI MADANIY MEROSNI SAQLASH VA TURIZMDA FAOL ISHTIROK ETISHGA JALB QILISH MEXANIZMLARI

Umarov Omonjon Muxammad o'g'li

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot

kafedrası katta o'qituvchisi

umarovomonjon1994@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodni madaniy merosni asrash va turizm sohasida faol ishtirok etishga jalb qilishning ilmiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston misolida yoshlarni meros obyektlarini muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish hamda madaniy turizmni rivojlantirish jarayonlariga jalb etish tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, Ispaniya, Yaponiya va Turkiya kabi davlatlarning ilg'or yondashuvlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, yoshlarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, ularning ijodkorlik va tashabbuskorligini oshirish bo'yicha samarali mexanizmlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari yoshlar ishtirokini tizimli yondashuv asosida tashkil etish madaniy merosni barqaror saqlash va turizm salohiyatini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: madaniy meros, yoshlar ishtiroki, turizm, merosni boshqarish, barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, ishtirok mexanizmlari.

МЕХАНИЗМЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ МОЛОДЁЖИ К СОХРАНЕНИЮ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И АКТИВНОМУ УЧАСТИЮ В ТУРИЗМЕ

Умаров Омонжон Мухаммад угли

Кокандский университет

кафедра международного туризма и экономики

старший преподаватель.

Аннотация. В статье рассматриваются научные основы и практические механизмы привлечения молодёжи к сохранению культурного наследия и активному участию в сфере туризма. На примере Узбекистана анализируется опыт вовлечения молодых людей в процессы охраны, рационального использования объектов наследия и развития культурного туризма. Проведено сравнительное исследование с опытом таких стран, как Испания, Япония и Турция. Определены эффективные механизмы расширения участия молодёжи в принятии решений, а также развития их творческого и инициативного потенциала. Результаты исследования показывают, что системное участие молодёжи способствует устойчивому сохранению культурного наследия и повышению туристического потенциала.

Ключевые слова: культурное наследие, участие молодёжи, туризм, управление наследием, устойчивое развитие, международный опыт, механизмы участия.

MECHANISMS FOR ENGAGING YOUTH IN CULTURAL HERITAGE PRESERVATION AND ACTIVE PARTICIPATION IN TOURISM

Umarov Omonjon Muxammad o'g'li

Senior Lecturer of Kokand University

Department of International Tourism and Economics

Abstract. This article explores the theoretical foundations and practical mechanisms for engaging young people in cultural heritage preservation and active participation in tourism. Using Uzbekistan as a case study, the research examines youth involvement in the protection, effective use, and promotion of cultural heritage sites. Comparative analysis with the experiences of Spain, Japan, and Turkey highlights successful international practices for enhancing youth participation in decision-making, creativity, and initiative in heritage management. The findings demonstrate that a systematic approach to youth engagement is a key factor for ensuring sustainable heritage preservation and strengthening the tourism potential of the country.

Keywords: cultural heritage, youth participation, tourism, heritage management, sustainable development, international experience, engagement mechanisms.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlod – ya'ni 30 yoshgacha bo'lgan aholi – jamiyatning qariyb 60 foizini tashkil etadi [8]. Ushbu demografik holat shuni ko'rsatadiki, yoshlar mamlakatning eng qimmatli resursi bo'lib, ularning salohiyati va energiyasidan to'g'ri foydalanish milliy rivojlanishning muhim omili sanaladi. Madaniy merosni asrab-avaylash va turizm sohasini rivojlantirishda aynan yoshlarning ishtiroki g'oyat dolzarbdir, chunki ular bo'lajak avlod sifatida milliy boyliklarni davom ettiradigan hamda yangicha yondashuvlar orqali sayyohlikni yuksaltiradigan kuchga ega. Shu bois bugungi kunda madaniy merosni saqlash va turizmda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash masalasi davlat siyosati darjasiga ko'tarilgan.

Yoshlarni madaniy merosni asrash va turizm faoliyatlariga keng jalb etish zamonaviy dunyoda nafaqat madaniy boyliklarni kelgusi avlodlarga yetkazish, balki barqaror iqtisodiy o'sishga erishish vositasi hamdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlod madaniy merosning “kelajak vorisi” bo'lib, ularni bu jarayonlarga jalb etish orqali merosning qadriyat sifatida ahamiyati oshadi. Xususan, BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti

(YuNESKO) vakillari ta'kidlashicha, ijodkorlik va innovatsiyalar bilan faol qatnashgan yoshlar madaniy merosni nafaqat himoya qiladi, balki uning qiymati va barqarorligini ham mustahkamlaydi[8]. Bu fikrlar yoshlarning madaniy merosga munosabati va ularning turizm sohasidagi roli naqadar muhim ekanini tasdiqlaydi.

Madaniy merosni saqlash va turizmni rivojlantirish o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlardir. Madaniy meros ob'ektlari (arxeologik yodgorliklar, me'moriy inshootlar, musiqiy va og'zaki an'analarning nomoddiy merosi va h.k.) turizm uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, turizm sohasi mazkur meros ob'ektlariga e'tiborni jalb etib, ularning iqtisodiy qiymatini oshiradi va saqlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayonda yoshlarning roli ikki tomonlama: bir tomondan, ular merosni himoya qilish bo'yicha jismoniy va intellektual mehnat qiluvchi ko'ngillilar, tadqiqotchilar va targ'ibotchilar bo'lishi mumkin; ikkinchi tomondan esa, yoshlar sayyohlar sifatida milliy va jahon madaniy merosiga bo'lgan talabni shakllantiradi. Shu sababli, yosh avlodni madaniy merosni asrash jarayonlariga integratsiya qilish va ularni turizm faoliyatida ishtirok etishga rag'batlantirish barqaror turizm va merosni saqlash uchun strategik ahamiyatga ega deb taxmin qilinadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globalizatsiya va shiddatli urbanizatsiya sharoitida milliy madaniy meros ob'ektlari va an'anaviy qadriyatlarni asrash mas'uliyati tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Prezidentining so'nggi yillarda qabul qilgan qaror va farmonlarida yoshlar siyosatini takomillashtirish, shu jumladan ularni turizm va madaniy meros sohaslariga jalb etish bo'yicha topshiriqlar belgilangan. Xususan, mamlakatimizda 2024 yildan boshlab har yili yanvar va mart oylarida "Yoshlar turizmi haftaligi", iyul oyida esa "Yoshlar turizmi oyligi" deb e'lon qilinib, butun respublika bo'ylab yoshlarni sayohatlarga jalb etish tizimi yo'lga qo'yildi[6]. Bu kabi tashabbuslar milliy darajada yoshlarning rolini oshirishga qaratilganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Madaniy meros, yoshlar va turizm kesishgan nuqtada olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, yosh avlodni mazkur jarayonlarga jalb etish masalasi nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida ham dolzarbdir. Milliy va xalqaro adabiyotlar tahlili mavjud muammo va imkoniyatlarni chuqur anglash hamda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniy merosni asrash borasida bir qator davlat dasturlari va tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2010–2020-yillarga mo'ljallangan Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish davlat dasturida yoshlarni bevosita ushbu soha bilan tanishtirish va jalb etish masalasi alohida band sifatida belgilangan. Mazkur dasturga muvofiq, 2011-yildan boshlab Yoshlar ittifoqi (sobiq "Kamolot" YOIH) va tegishli vazirliklar

hamkorligida yoshlarni nomoddiy madaniy meros bo'yicha materiallar to'plash va targ'ibot ishlariga jalb etish choralari ko'rilgan. Hujjatda ta'kidlanishicha, yoshlarning madaniy meros obyektlari bilan bevosita tanishuvi ularning qiziqishini orttiradi va merosga bo'lgan iliq munosabatini shakllantiradi. Bu O'zbekiston siyosatida yosh avlodni merosni saqlash ishlariga jalb qilish uzoq muddatli ustuvor yo'nalish ekanini anglatadi[7].

O'zbekistonning turizm va madaniy meros sohasidagi siyosiy-iqtisodiy hujjatlarida yoshlar ishtirokini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Prezident qarorlari va hukumat dasturlarida ichki turizmga yoshlarni keng jalb qilish, ular uchun imtiyozli imkoniyatlar yaratish, madaniy meros ob'ektlariga sayohatlarni tizimli yo'lga qo'yish masalalari qayd etilgan[4]. Turizm va madaniy meros qo'mitasi tomonidan maxsus "Yoshlar turizmi" dasturi tasdiqlanib, uning doirasida butun mamlakat bo'ylab muzeylar, teatrlar va tarixiy obidalarga yoshlarning jamoaviy tashriflarini uyushtirish yo'lga qo'yildi. Bu kabi tashkiliy va tashviqot ishlari yosh avlodda o'z diyoring madaniy boyliklariga qiziqish uyg'otish va ularni o'rganishga rag'batlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Jahon miqyosidagi tadqiqotlar ham yoshlarning madaniy meros va turizmga jalb qilinishining ijobiy natijalarini ko'rsatadi. YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar tajribasida yoshlar madaniy merosning "qo'riqchilari" deb qaraladi. Masalan, 2024-yil YuNESKOning Butunjahon merosi kuni munosabati bilan Indoneziyada o'tkazilgan tadbirda yoshlar madaniy merosni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynashi, ular ijodkorlik va innovatsiyalar orqali merosni yanada boyitishi va mustahkamlashi ta'kidlandi[8]. Bu yondashuv yoshlarning nafaqat madaniy merosni himoya qilish, balki uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga qodir kuch ekanini e'tirof etadi.

Akademik nazariy ishlarda yoshlarni madaniy merosni boshqarish jarayonlariga qanday integratsiya qilish konseptual jihatdan o'rganilgan. Masalan, Zhang va hammualliflar tomonidan madaniy merosni boshqarishda yoshlar ishtirokini tavsiflovchi yangi konseptual model taklif etilgan bo'lib, unda maqsad, mavqe, nuqtai nazar va vakolat kabi to'rt o'lchamda yoshlar ishtiroki tahlil qilinadi. Ushbu doirada mualliflar yoshlar ishtirokini oshirish uchun avvalo ularni xabardor qilish (informing) va o'qitish (educate) zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Yangi avlodga madaniy meros sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish, ya'ni meros ta'limini kuchaytirish, ularning keyingi bosqichlarda faol ishtirokchi va tashabbuskor bo'lib yetishishiga zamin yaratadi[13].

Shu bilan birga, nazariy izlanishlarda yoshlarni qaror qabul qilish jarayonlariga to'laqonli qo'shish, ularning nuqtai nazarini hisobga olish va mas'uliyat yuklash orqali "yoshlar-katta" hamkorligining samaradorligi oshishi ta'kidlanadi [13]. Demak, nazariy manbalar yoshlar ishtirokini faqat ijrochilik darajasida emas, balki rejalashtirish va boshqaruv darajasida ham yo'lga qo'yish lozimligini ko'rsatmoqda.

UNESCOning Butunjahon merosi dasturi doirasida har yili yoshlar forumlari va “World Heritage Volunteers” (Butunjahon merosi ko‘ngillilari) kampaniyalari o‘tkazilib, 15–25 yoshdagi ko‘ngillilar jahon merosi ob’ektlarini asrash bo‘yicha amaliy ishlarda qatnashmoqda. Bunday tashabbuslar yoshlarni nafaqat o‘z yurtidagi, balki jahon merosiga daxldor mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalashga qaratilgani bilan e’tiborlidir [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot dizayni sifat jihatdan, qiyosiy tahlil usuliga asoslangan holda ishlab chiqildi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqib, izlanishda bir nechta metodlardan foydalanildi. Birinchidan, adabiyotlar sharhida berilgan adabiyotlar orqali mavzuga doir milliy va xalqaro ilmiy manbalar, hisobotlar va qonun hujjatlari o‘rganildi. Ikkinchidan, tadqiqotda taqqoslama holat tahlili qo‘llanildi. Uchinchidan, mazmuniy tahlil uslubidan foydalangan holda OAV xabarlarini, rasmiy press-relizlar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Tadqiqotda asosiy e’tibor sifat ko‘rsatkichlariga qaratilgan bo‘lib, miqdoriy ma’lumotlardan ham yordamchi vosita sifatida foydalanildi. Tadqiqot natijalari sifatida milliy va xalqaro tajribani solishtirish, samarali mexanizmlarni aniqlashdan iborat.

Tahlil va natijalar.

Ushbu bo‘limda olib borilgan tadqiqot natijalari ikki yo‘nalishda tahlil qilinadi. Avvalo, O‘zbekiston misolida yoshlarni madaniy merosni asrash va turizm sohasiga jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, dasturlar va tashabbuslarning mazmuni hamda ularning amaliy samaradorligi o‘rganiladi. Keyingi qismda esa Ispaniya, Yaponiya va Turkiya tajribalari asosida yoshlar ishtirokini kuchaytirish va ularning madaniy merosni boshqarishdagi rolini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro yondashuvlar tahlil qilinadi. Har bir mamlakat misolida qo‘llanilayotgan mexanizmlar, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilib, umumlashtirilgan ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

O‘zbekiston tajribasi: Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlar siyosati doirasida madaniy meros va turizmga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2023–2024-yillarda qabul qilingan qator qarorlar asosida yoshlar uchun madaniy meros obyektlariga sayohatlar, maxsus tadbirlar tizimli yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 2024-yil yanvar va mart oylarida ilk bor “Yoshlar turizmi haftaligi” o‘tkazilib, respublika bo‘ylab minglab yoshlarning tarixiy obidalarga, ziyoratgoh va diqqatga sazovor joylarga tashrifi tashkil etildi. Xususan, 2024-yilning birinchi choragida o‘tkazilgan haftalik doirasida 936 mingdan ziyod o‘quvchi va talaba yoshlar mamlakat bo‘ylab sayohatlarga jalb qilindi. Ularning 348,9 ming nafari madaniy meros obyektlariga (qo‘riqlanadigan tarixiy obidalarga), 174,3 ming nafari muzeylarga, 152,2 ming nafari teatrlarga va 136,7 ming nafari kinoteatrlarga tekin tashrif buyurdi [9]. Bunday keng ko‘lamli dastlabki

tashabbus yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otdi va o'quvchi-yoshlar uyidan olib chiqilib, jonli tarixiy muhitga sho'ng'ishga muvaffaq bo'lishdi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda yoshlarni turizm va madaniy merosga jalb etish dasturlari inklyuziv xususiyatga ega. Ya'ni, dastlabki navbatda imkoniyati cheklangan yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari va iqtidorli yoshlar ushbu sayohatlarga qamrab olindi. Nogironligi bo'lgan yoshlar uchun maxsus transport va zarur infratuzilma (panduslar, audiogidlar va h.k.) bilan ta'minlash choralari ko'rilgani e'tiborga loyiqdir. Yoshlar safarlari jarayonida hunarmandchilik bo'yicha 858 ta mahorat darsi, sport va madaniy-ko'ngilochar tadbirlar ham uyushtirilgan bo'lib, bularning bari yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qildi [11].

Amalga oshirilgan bu ishlar O'zbekistonda yoshlarni madaniy meros va turizmga jalb qilish borasida ancha izchil dasturlar mavjudligini ko'rsatadi. Dastlabki natijalar ijobiy bo'lib, minglab yoshlar qamrab olindi, ularda tarixiy merosga nisbatan qiziqish ortdi. Ayniqsa, ta'limiy sayohatlar va interaktiv tadbirlar yoshlarning ko'z o'ngida "tirik tarix" manzarasini gavdalantirdi. Biroq, bu jarayonda duch kelinayotgan ayrim muammolar ham yo'q emas. Masalan, bunday yirik tadbirlarni moliyalashtirish doimiy manbaga ega bo'lishi lozim; barcha hududlarda sifatli gid va trenerlar yetarli emasligi seziladi; shuningdek, barcha yoshlarning qatnashishini ta'minlash (masalan, chekka qishloqlardagi yoshlar) uchun transport-logistika masalalari yechimini kutadi.

Ispaniya tajribasi: Ispaniya Yevropaning madaniy merosga boy va turizm rivojlangan mamlakatlaridan biridir. Mamlakatda yoshlarni madaniy hayotga jalb qilish va ularda madaniy meros haqida bilim oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Xususan, Ispaniya Madaniyat va sport vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi Ispaniya madaniy meros institutining Preventiv konservatsiya milliy rejasi mavjud bo'lib, unda yoshlar va madaniy meros aloqalarini kuchaytirishga alohida e'tibor berilgan. Ushbu rejada madaniy turizm jamiyatni ijtimoiy birlashtiruvchi va madaniy kommunikatsiyani rivojlantiruvchi omil sifatida qaraladi. 1995-yilda Ispaniya hukumati tomonidan boshlangan "Hunarmandchilik maktablari va Kasb uylari" (Escuelas Taller y Casas de Oficios) dasturi yoshlarni bandlikni ta'minlash bilan birga merosni tiklash va targ'ib qilish maqsadida yo'lga qo'yilgan. Ushbu dastur doirasida 25 yoshgacha bo'lgan ishsiz yoshlarga tarixiy ob'ektlarni restavratsiya qilish, arxeologiya, muzey ishi kabi yo'nalishlarda amaliy ko'nikma beriladi va ularning bandligi ta'minlanadi [1]. Mazkur mexanizm bir tarafdin madaniy meros ob'ektlarining asrab-avaylanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tarafdin yuzlab yoshlarni kasb-hunarga o'rgatib, ularga ish o'rinlari yaratgan. Dastur natijasida ko'plab tarixiy obidalar mahalliy yoshlar mehnati evaziga tiklandi va turizm ob'ektlariga aylantirildi, yoshlar esa malakali restavrator va gid sifatida mehnat bozoriga kirib kelishdi.

Yoshlarning madaniy hayotda ishtirokini oshirish maqsadida Ispaniyada moliyaviy rag'batlar tizimi ham qo'llanilgan. Masalan, 2021-yildan boshlab joriy etilgan "Yoshlar madaniy bonusi" – 18 yoshga to'lgan fuqarolarga bir martalik 400 yevrolik sertifikat berilib, uni muzey, teatr, kinoteatrga chipta olish yoki kitob, musiqa asarlari kabi madaniy mahsulotlar xaridiga sarflash imkoniyati yaratildi. Bu tashabbus yoshlarning madaniy sarf-harajatlarini qo'llab-quvvatlab, ularga moddiy to'siqlarni kamaytirdi. Natijada, 18 yoshli ispan yoshlari orasida muzey va teatrga borish ko'rsatkichlari oshgani kuzatildi, bu esa ularning madaniy merosga bo'lgan qiziqishi oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy darajada ham ko'plab tadbirlar mavjud: masalan, Ispaniyaning Albarrasin shahrida 2025-yilda o'tkaziladigan "Yoshlar merosi kunlari" doirasida butun Yevropadan kelgan talabalar "depopulyatsiya, yoshlar va madaniy meros" mavzusida muhokamalar o'tkazadilar, mahalliy tarixiy muammolar ustida birgalikda yechimlar ishlab chiqadilar [1]. Bunday anjumanlar yosh mutaxassislar va talabalarga xalqaro tarmoq orqali o'z g'oyalarini almashish va merosni saqlashga innovatsion yechimlar taklif qilish imkonini beradi.

Jumladan, Ispaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni merosni saqlashga jalb etish uchun ularni malakali kadr sifatida tayyorlash, moliyaviy rag'batlantirish va faol ishtirok uchun platformalar yaratish (forumlar, tadbirlar) kabi mexanizmlar samarali ishlamoqda. Bu jarayonda davlat idoralari bilan bir qatorda nodavlat tashkilotlar ham muhim rol o'ynaydi – masalan, Europa Nostra va ESACH (Yevropa Madaniy meros talabalar assotsiatsiyasi) kabi tashkilotlar yoshlar o'rtasida merosni targ'ib qilishga katta hissa qo'shmoqda.

Yaponiya tajribasi: Yaponiya boy madaniy merosi va qadimiy an'analarga ega mamlakat bo'lib, yosh avlodni ushbu merosni davom ettiruvchi sifatida tarbiyalashga katta ahamiyat beradi. Yaponiyada madaniy merosga (ayniqsa nomoddiy meros – an'anaviy teatr, musiqa, hunarmandchilik va boshqalar) yoshlarni jalb qilishning asosiy yo'li – ustoz-shogird an'anasini zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirishdir. Masalan, Okinava orolida amalga oshirilayotgan madaniy meros dasturlarida yosh ijrochilarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2]. 2018-yildan buyon Okinava prefekturasi Karate (jang san'ati) ni rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur qabul qilib, unda yoshlar uchun karate bo'yicha treninglar, musobaqalar va hatto xorijiy sayyohlar uchun ko'rgazmali chiqishlar tashkil etilmoqda. Karate UNESCOning nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritilgani bois, uning yoshlar orasida ommalashuvi orqali Yaponiya nafaqat merosni saqlamoqda, balki uni turistik mahsulotga aylantirmoqda [10].

Bundan tashqari, Okinava an'anaviy raqslari va xalq musiqasini yosh avlodga o'rgatish uchun maxsus to'garaklar va guruhlar faoliyat ko'rsatadi. Yapon hukumati va mahalliy idoralar an'anaviy ijrochilik guruhlarini qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlarni rag'batlantirish choralarini ko'rib kelmoqda [2]. Natijada, bugungi kunda Okinava va butun Yaponiyada ko'plab yoshlar an'anaviy teatr (Kabuki, Nou), xalq raqslari, mumtoz musiqa kabi meros

yo'nalishlarida faoliyat yuritib, mahoratini namoyish etmoqda. Masalan, yapon an'anaviy "taiko" barabanlar jamoalari orasida maktab o'quvchilaridan iborat guruhlar ham bor bo'lib, ular xalqaro festivallarda qatnashib, o'z meroslarini dunyoga tarannum etmoqda. Bu kabi misollar yoshlarning madaniy merosni nafaqat o'rganishi, balki uni zamonaviy sahnada targ'ib qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Yaponiyada madaniy meros ta'limi maktab darsliklari va to'garaklari orqali uzluksiz olib boriladi. UNESCOning Associated Schools (ASPnet) tarmog'i doirasida yapon maktablarida "Jonli meros bilan ta'lim" loyihalari joriy qilinib, masalan, matematika yoki san'at darslarida an'anaviy madaniyat elementlarini integratsiya qilish tajribalari o'tkazildi [8]. Bu tashabbus bolalarda milliy merosga qiziqish uyg'otish barobarida ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham oshirdi. UNESCOning xulosasiga ko'ra, bunday interaktiv yondashuv natijasida o'quvchilar o'z meroslarining xilma-xilligini yaxshiroq anglab, ularni saqlash va qadrlashga mas'uliyatliroq yondasha boshlagan.

Xalqaro misollarni tahlil qilish jarayonida, qator umumiy tendensiyalarni payqash mumkin. Avvalo, ko'p mamlakatlarda madaniy merosni asrashda ta'lim va ma'rifat yetakchi rol o'ynashi, maktabdan tortib oliygohgacha bo'lgan bosqichlarda meros bo'yicha bilim berish, yoshlarni ongli ravishda meros posbonlariga aylantirish g'oyasi ustuvor. Ikkinchidan, ko'ngillilik harakati va amaliyot – yoshlar o'z mehnati bilan bevosita hissa qo'shishi uchun imkon yaratish muhim. Bunga misol tariqasida UNESCO ko'ngillilari, Italiya va Gretsiyadagi homiylik dasturlarini keltirish mumkin. Uchinchidan, rag'batlantirish va imkoniyatlar yaratish – bu moddiy yoki ma'naviy bo'lishi mumkin, baribir yoshlarni jalb etuvchi omil bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, yosh avlodni madaniy merosni saqlash va turizmدا faol ishtirok etishga jalb qilish bo'yicha tizimli yondashuvlar ijobiy samara beradi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatdiki, davlat miqyosida rejalashtirilgan "Yoshlar turizmi" kabi dasturlar qisqa muddatda minglab yoshlarni qamrab olib, ularning tarixiy merosga bo'lgan dunyoqarashini boyitmoqda. Xalqaro tajriba esa ushbu yo'nalishdagi ko'plab innovatsion usullarni o'zida mujassam etgan.

Tavsiyalar: Tadqiqot tahlillari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: *Meros ta'limini kuchaytirish:* Maktab va oliy ta'lim dasturlariga "madaniy meros va turizm"ga oid modullarni kiritish lozim. Bu darslarda o'quvchilarga o'z yurtining tarixi, merosi bilan faxrlanish tuyg'usini singdirish, shuningdek, merosni saqlashning zamonaviy usullari (raqamli arxivlash, muzeyshunoslik asoslari va h.k.) bo'yicha bilim berish mumkin.

Ko'ngillilik infratuzilmasini rivojlantirish: Madaniy meros ob'ektlarida volontyorlik faoliyatini yo'lga qo'yish kerak. Masalan, muzeylar qoshida "Yosh gidlar klubi"ni tashkil etib, talabalarni malaka oshirish kurslaridan o'tkazish va ular orqali muzey ekskursiyalarini o'tkazish. Yoki tarixiy yodgorliklarda "Yosh posbonlar" guruhlarini shakllantirib, ular muntazam ravishda obida atrofini tozalash, xorijiy sayyohlarga ko'maklashish, jamoatchilikka merosni targ'ib qilish ishlarini olib borishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb etish: Bugungi yoshlar hayotini smartfon va internetdan ajratib bo'lmaydi. Shunday ekan, madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish uchun maxsus mobil ilovalar, o'yinlar va onlayn platformalar yaratish zarur. Masalan, tarixiy obidalar bo'yicha QR-kodli interaktiv xaritalar tuzish, yoshlar ular orqali obida haqida qiziqarli ma'lumot va viktorinalarda ishtirok etishlari mumkin. Yoki ijtimoiy tarmoqlarda #MerosChallenge kabi chellenjlar uyushtirib, yoshlar o'z viloyatidagi tarixiy obida fonida suratga tushib hikoya yozishlari va g'oliblar mukofotlanishi mumkin. Bu usullar orqali yoshlarning e'tiborini merosga jalb qilish ancha oson kechadi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Yoshlarimizni xalqaro madaniy almashinuv va volontyorlik dasturlariga faol jalb qilish zarur. Masalan, UNESCOning "World Heritage Volunteers" dasturida O'zbekiston yodgorliklarini ham ishtirokchi sifatida taklif etish va xorijiy hamda mahalliy yoshlarni birga ishlashiga sharoit yaratish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, yosh avlod – millatimizning madaniy genofondi va ravnaq garovidir. Ularni madaniy merosni asrash ishlariga jalb etish bugun bizga ikki karra foyda keltiradi: birinchidan, o'tmishimiz yodgorliklari ko'z qorachig'idek asraladi; ikkinchidan, kelajagimiz vorislarida yuksak madaniyat va vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiya topadi. Yoshlarni turizm sohasiga keng jalb etish esa ularga yangi imkoniyatlar va dunyoqarash ochadi, shu bilan birga, xalqimizning boy merosini jahonga namoyish etish orqali mamlakatimizning ijobiy qiyofasini mustahkamlaydi. Shunday ekan, yoshlar va madaniy meros integratsiyasi yo'lidagi sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmog'i lozim – bu nafaqat bugungi kun talabi, balki kelajak avlodlar oldidagi burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. *Ministry of Culture and Sport of Spain. (2019, May 27). Madrid and Santiago de Compostela to host the 11th World Heritage Youth Forum. La Moncloa Official <https://www.lamoncloa.gob.es/lang/en/gobierno/news>.*
2. *Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (Japan). (n.d.). Dissemination of UNESCO's activities to the younger generations. MEXT, Government of Japan. <https://www.mext.go.jp/en/unesco/titleo8>*

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, January 5). O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini 2019–2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida [Farmon PF-5611]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4143188>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, April 30). Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [Qaror PQ-232]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5991928>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, May 15). 2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida [Farmon PF-87]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-7531559>
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2016, September 14). Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida [Law on State Youth Policy, O'RQ-406]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3026246>
7. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2019, December 2). Volontyorlik faoliyati to'g'risida [Law on Volunteering Activity, O'RQ-585]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4623999>
8. UNESCO. (2019, January 7). Heritage, education and youth: UNESCO and the European Union launch a new project. UNESCO Intangible Cultural Heritage. <https://ich.unesco.org/en/news/heritage-education-and-youth>.
9. UNESCO. (2020). Empowering youth for heritage: 10 years of the World Heritage Volunteers initiative. Paris: UNESCO World Heritage Centre. <https://whc.unesco.org/en/news/2111>
10. World Tourism Organization (UNWTO). (2016). Affiliate Members Global Report – Volume 13: The power of youth travel. Madrid, Spain: UNWTO. https://www.wysetc.org/wp-content/uploads/2016/03/Global-Report_Power.
11. Xalq so'zi. (2023, December 28). O'zbekistonda "Yoshlar turizmi haftaligi" o'tkaziladi ["Youth Tourism Week" to be held in Uzbekistan]. Xalq so'zi. <https://xs.uz/>
12. Yangi O'zbekiston. (2023, December 27). 2024-yil 1–10-yanvar kunlari "Yoshlar turizmi haftaligi" o'tkaziladi ["Youth Tourism Week" will be held on 1–10 January 2024]. Yangi O'zbekiston. <https://yuz.uz/uz/news/2024-yil-1-10>.
13. Zhang, Y., Ikiz Kaya, D., van Wesemael, P. J. V., & Colenbrander, B. J. F. (2023). Youth participation in cultural heritage management: a conceptual framework. *International Journal of Heritage Studies*. Advance online publication. <https://doi.org/10.1080/13527258.2023.2275261>
14. Hill, H., & Dadvand, B. (2018). Re-conceptualising youth participation: A framework to inform action. *Children and Youth Services Review*, 95, 243–253. <https://doi.org/10.1016/j.childyouth.2018.11.001>

SOLIQ YIG'UVCHANLIGINI OSHIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATI VA IJTIMOY ONGNING ROLI

Solixova Xumora Xasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Moliya va turizm kafedrasida o'qituvchisi

Orsid:0009-0003-8524-1427

xumorasolixova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning o'рни ilmiy jihatdan o'rganildi. O'zbekiston tajribasi Skandinaviya mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Singapur tajribalari bilan taqqoslab tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fuqarolarning soliqqa bo'lgan ishonchi va faol jamoatchilik ishtiroki soliq yig'uvchanlik darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribalarni moslashtirish va soliq madaniyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: soliq yig'uvchanligi, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy ong, soliq madaniyati, Skandinaviya tajribasi, Koreya Respublikasi, Singapur, O'zbekiston, soliq tizimi, ishonch.

РОЛЬ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ИНФОРМИРОВАННОСТИ В ПОВЫШЕНИИ СОБИРАЕМОСТИ НАЛОГОВ

Солихова Хумора Хасан кизи

Преподаватель кафедры финансов и туризма

Термезского университета экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье научно исследуется роль общественного контроля и общественного сознания в повышении собираемости налогов. Опыт Узбекистана сравнительно проанализирован с практикой скандинавских стран, Республики Корея и Сингапура. Результаты исследования показывают, что доверие граждан к налоговой системе и активное участие общественности напрямую влияют на рост собираемости налогов. В статье разработаны научно-практические предложения по адаптации зарубежного опыта и повышению налоговой культуры в Узбекистане.

Ключевые слова: собираемость налогов, общественный контроль, общественное сознание, налоговая культура, скандинавский опыт, Республика Корея, Сингапур, Узбекистан, налоговая система, доверие.

THE ROLE OF PUBLIC CONTROL AND SOCIAL AWARENESS IN INCREASING TAX COLLECTION

Solixova Khumora Khasan qizi

*Lecturer at the Department of Finance and Tourism
Termez University of Economics and Service*

Abstract. *This article scientifically examines the role of public oversight and social awareness in improving tax collection. The experience of Uzbekistan is comparatively analyzed with the practices of Scandinavian countries, the Republic of Korea, and Singapore. The research results show that citizens' trust in the tax system and active public participation directly affect the increase in tax collection rates. The article develops scientific and practical proposals for adapting international experience and enhancing tax culture in Uzbekistan.*

Keywords: *tax collection, public oversight, social awareness, tax culture, Scandinavian experience, Republic of Korea, Singapore, Uzbekistan, tax system, trust.*

Kirish.

Soliq tizimi davlatning moliyaviy mustahkamligini belgilovchi asosiy institutlardan biri bo'lib, uning samarali faoliyati davlat budjeti daromadlarining to'liqligini, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bois, soliq yig'uvchanlik darajasi nafaqat fiskal mexanizmlarning ishlash sifati, balki jamiyatdagi fuqarolik madaniyati, davlatga bo'lgan ishonch va ijtimoiy ong darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq to'lash jarayonini faqat majburiyat emas, balki ijtimoiy javobgarlik sifatida anglaydigan jamiyatlarda soliq tushumlari yuqori bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasida ijobiy aloqalar shakllanadi.

Zamonaviy davlatlar tajribasi, xususan Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur misolida soliq yig'uvchanlik darajasining yuqoriligi faqat soliq stavkalari va qonunchilikka emas, balki ijtimoiy psixologik omillarga ham tayanishini ko'rsatmoqda. Bunday mamlakatlarda fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchi yuqori bo'lib, soliqlarni o'z manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida qabul qilishadi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati institutlarining kuchliligi soliq tizimining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish borasida ijobiy natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, soliq yig'uvchanlik darajasi hanuz optimal darajada emas. Norasmiy bandlik, soliqdan bo'yin tovlash holatlari va ijtimoiy ongning yetarli emasligi bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, jamiyatda soliqqa nisbatan salbiy

stereotiplarning mavjudligi, davlatga bo'lgan ishonchning yetarli emasligi soliq majburiyatlariga sust yondashishga olib kelmoqda.

Mazkur maqolada soliq yig'uvchanligini oshirishda ijtimoiy ong va jamoatchilik nazoratining o'zni chuqur tahlil qilinadi. Dunyodagi ilg'or tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida soliq madaniyatini shakllantirish, fuqarolik faolligini kuchaytirish, shuningdek, soliq jarayonlarini ochiqlashtirish orqali fuqarolarning ishonchini mustahkamlash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, maqolada soliq tizimidagi ijtimoiy omillar bilan bog'liq muammolar statistik ma'lumotlar asosida yoritilib, ijtimoiy ong va fuqarolik nazorati kuchaytirilgan holatda soliq yig'uvchanlik darajasining oshishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

Soliq yig'uvchanligi, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ong bo'yicha ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va davlat hujjatlari o'rganildi.

O'zbekiston va ba'zi xorijiy mamlakatlar (Skandinaviya, Koreya Respublikasi, Singapur) tajribasi taqqoslab tahlil qilindi.

O'zbekistonning 2017–2023 yillar davridagi soliq yig'uvchanlik ko'rsatkichlari asosida dinamik o'zgarishlar o'rganildi.

Soliq yig'uvchanlik darajasiga oid statistik ko'rsatkichlar orqali tendensiyalar aniqlangan.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq yig'uvchanligiga ta'sir etuvchi omillar ko'plab xalqaro va milliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan:

Musgrave, R.A. va Musgrave, P.B. (1989) o'zining "Public Finance in Theory and Practice" asarida soliq madaniyati va aholining soliqqa nisbatan ishonchi soliq yig'uvchanligining asosi ekanligini ta'kidlagan [1].

Bird, R., Martinez-Vazquez, J. va Torgler, B. (2014) soliq yig'uvchanligi va jamoatchilik ishonchi o'rtasidagi bevosita aloqani aniqlagan [2].

OECD (2022) "Revenue Statistics: Eurasia Edition" hisobotida soliq yig'uvchanlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda fuqarolarning soliq tizimiga nisbatan ijobiy munosabati va ishtirok darajasi yuqoriligi qayd etilgan [3].

Chowdhury, F. L. va Rasul, G. (2011) o'z tadqiqotlarida korrupsiyaga qarshi kurash va shaffoflik jamoatchilik nazoratining muhim tarkibiy qismlari ekanligini ko'rsatgan [4].

Andersen, S. C. (2018) "Trust in Government and Tax Compliance" ishida Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy ishonch va fuqarolik mas'uliyati soliq yig'uvchanligiga ijobiy ta'sir qilganini ko'rsatgan [5].

Musayeva N. (2021) o'z tadqiqotida soliq madaniyati ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, fuqarolarning soliq tizimi bo'yicha huquqiy bilimi va ijtimoiy javobgarligini oshirish soliqlarning to'liq yig'ilishini ta'minlaydi degan xulosaga keladi[13].

Samatov M. (2022) jamoatchilik nazorati vositalarining, xususan blogerlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va OAVning soliq idoralariga bosim o'tkazish, faoliyatlarining monitoringi orqali soliqqa bo'lgan ishonchni oshirish imkonini taqdim etishini ta'kidlaydi. Torgler (2005) Lotin Amerikasi tajribasida jamoatchilik nazorati zaif bo'lgan jamiyatlarda soliq to'lashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi pastligini asoslab bergan[14].

Mahmudov Q. (2023) esa soliq tizimida shaffoflikni oshirish orqali fuqarolarda davlatga bo'lgan ishonch mustahkamlanishi, bu esa soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishga turtki bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [11]. Jahon bankining 2020-yilgi hisobotida esa soliq organlarining faoliyati va tushumlar bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini yuritish jamoatchilik nazoratining kuchayishiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Xalqaro Soliq Konsalting markazi (2021) ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy ongni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va diniy-axloqiy qadriyatlarning ta'siri ham muhim hisoblanadi. Mishra va hammualliflar (2011) Hindiston tajribasida jamoatchilik ishtiroki va siyosiy iroda birlashganda bojxona va soliq to'lovlaridagi buzilishlar kamayishi, yig'uvchanlik ortishini tahlil qilgan[12].

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jamoatchilik ishtirokini oshirish va ijtimoiy ongni rivojlantirish natijasida yig'uvchanlik darajasi barqaror oshmoqda [6].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ijtimoiy ong — bu jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, qadriyatlari, bilimlari, e'tiqodlari, axloqiy tamoyillari va siyosiy, iqtisodiy qarashlarining jamlanmasidir. Ya'ni, bu insonlarning jamiyatdagi hodisalar va jarayonlarga bo'lgan munosabati va ular haqida shakllangan fikrlar yig'indisidir.

Ijtimoiy ong — soliq yig'uvchanligining ichki, ko'rinmas lekin juda muhim omilidir.

Soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning ahamiyatini tahlil qilish uchun, avvalo, O'zbekiston va ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqdik. Shuningdek, O'zbekistonning 2017–2023 yillar oralig'idagi soliq yig'uvchanlik ko'rsatkichlari dinamikasi va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy ong holatini baholovchi statistik ma'lumotlar ham tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi "Soliq siyosatini tubdan takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ular quyidagilardan iborat:

Soliq organlari faoliyatida axborot ochiqligi va shaffofligi tamoyillarini joriy etish.

Soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish va ularni soliq tizimidagi o'zgarishlardan xabardor qilish.

OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali soliq madaniyatini ommalashtirish.

1-jadval

2017-2023 yillarda soliqlarning yig'uvchanlik holati[6]

Ko'rsatkich	2017-yil	2020-yil	2023-yil	O'sish (%)
Soliq yig'uvchanligi darajasi	78%	85%	92.4%	+18.5%
Aholining soliq tizimiga ishonch darajasi (so'rovnoma asosida)	52%	68%	79%	+27%
Soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajargan yuridik shaxslar ulushi	74%	82%	89%	+15%

Tahlil shuni ko'rsatdiki:

Soliq yig'uvchanlik darajasi jamoatchilik nazorati kuchli bo'lgan hududlarda (Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona viloyatlari) o'rtacha 12–15% yuqori bo'lmoqda.

Soliq organlarining faoliyati yuzasidan ochiq hisobotlar berib borilgan hududlarda fuqarolarning soliqqa bo'lgan ishonchi oshgan va natijada soliq to'lov intizomi yaxshilangan.

Soliq siyosati yuzasidan jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qaror qabul qilingan hollarda, fuqarolar o'rtasida norozilik darajasi kamaygan va soliq to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilgan.

Misol uchun, 2021–2022 yillarda Toshkent shahrida joriy etilgan "Soliq masalalarida jamoatchilik monitoringi" dasturi natijasida soliqlarni o'z vaqtida to'lash ko'rsatkichi 7% ga oshgan.

Soliq tizimiga nisbatan ijtimoiy ongni oshirishda quyidagilar muhim rol o'ynadi:

Maktablarda va universitetlarda moliyaviy savodxonlik darslari yo'lga qo'yildi.

Soliqlarning ijtimoiy infratuzilmadagi ahamiyati ommaviy axborot vositalari va mashhur blogerlar orqali yoritildi.

Ayrim hududlarda soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajargan fuqarolarga imtiyozlar taqdim etildi.

Natijada, so'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra:

2023 yilda fuqarolarning 79% soliqlarni to'lash jamiyat rivoji uchun zarurligini tan olgan (2017 yilda bu ko'rsatkich 52% edi).

2022 yilda o'tkazilgan so'rovda fuqarolarning 65% davlatning soliqlardan foydalanish bo'yicha ochiqligidan qoniqish bildirgan (2018 yilda — 38%).

2-jadval.

Soliq yig'uvchanlik va ijtimoiy ong darajasi

Mamlakat	Soliq yig'uvchanlik darajasi	Ijtimoiy ong (aholi ishonchi va soliqqa nisbatan madaniyat)	Jamoatchilik nazorati tizimi
O'zbekiston	92.4% (2023)	O'rtacha darajada, oshish tendensiyasi bor	Yangi shakllanmoqda, faollik ortmoqda
Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya)	97-99%	Juda yuqori; soliq to'lash — ijtimoiy burch sifatida qabul qilingan	Mustaqil audit va fuqarolar monitoringi
Koreya Respublikasi	96-97%	Yaxshi; soliqlarni to'lash jamiyatga xizmat qilish sifatida baholanadi	Soliq to'lovchilar uyushmalari va onlayn monitoring
Singapur	98%	Yuksak; soliqlar rivojlanish va barqarorlik uchun asos sifatida ko'riladi	Elektron nazorat platformalari va fuqarolik ishtiroki

Manba: jadval muallif ishlanmasi

Skandinaviya mamlakatlari dunyoda eng yuqori soliq yig'uvchanlik darajasiga ega (Shvetsiyada 2022 yilda YIMga nisbatan soliq tushumlari 44.1%, Daniyada 46.5%, Norvegiyada 39.5%). Bu raqamlar nafaqat soliq siyosatining qat'iyligi, balki aholining ijtimoiy ishonchi va fuqarolik ongi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Ushbu mamlakatlarda soliq to'lash — fuqarolik burchi sifatida qaraladi. Soliqlarni yashirish yoki ulardan qochish jamiyatda kuchli ijtimoiy salbiy qarashga ega. Shvetsiyada masalan, barcha fuqarolarning daromad deklaratsiyalari ochiq — ularni istagan fuqaro ko'rib chiqishi mumkin. Bu esa jamoatchilik nazoratining kuchli shaklidir.

Ta'lim tizimida maktab bosqichidan boshlab soliqlarning mohiyati, davlat xizmatlari va byudjet jarayonlari o'rgatiladi. Davlat xizmatlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, pensiyalar) bepul va sifatli bo'lgani uchun, fuqarolar soliqlarni o'z foydalari deb bilishadi. Soliq yig'uvchanlik darajasi doimiy ravishda yuqori. Ijtimoiy ong va davlatga bo'lgan ishonch o'zaro mustahkam bog'liq.

Janubiy Koreyada soliq yig'uvchanlik nisbatan pastdan boshlangan (2000-yillar boshida YIMga nisbatan 20-22%), ammo 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich

****28.3%****ga yetdi. Bu o'sishga fuqarolarning ongli yondashuvi va raqamli soliq infratuzilmasi muhim hissa qo'shdi.

Koreyada davlat soliqqa oid ma'lumotlar va kompaniyalar orqali aholiga shuni doimiy eslatadi: "soliq to'laganingizda, siz infratuzilmani qurmoqdasiz, pensiyangizni kafolatlayapsiz." 2021-yilda Korea National Tax Service tomonidan "Taxpayer Rights Charter" ishlab chiqilib, har bir fuqaro o'zining soliq huquqlari haqida xabardor bo'lishi ta'minlandi.

Hamma savdo shoxobchalarida elektron kvitansiyalar majburiy, bu soliqdan qochishni kamaytiradi. "Haqiqiy vaqt soliq monitoringi" (real-time tax monitoring) orqali noqonuniy naqd pul aylanishi kamaygan.

Solix madaniyati yuqori texnologiyalar va ijtimoiy xabardorlik orqali shakllantirilmoqda. Soliqlarga nisbatan ijobiy qarash kuchaygan.

Singapur YIMga nisbatan past solix yukiga ega mamlakatlardan biri (2022-yil — 13.8%), biroq bu solix yukining pastligi solix yig'uvchanligining sustligi bilan emas, balki iqtisodiy samaradorlik va tartibga solingan solix tizimi bilan bog'liq.

Singapurda davlat va fuqarolar o'rtasida "ijtimoiy kontrakt" mavjud: fuqarolar solixlarni adolatli to'laydi, davlat esa o'z navbatida yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatadi. Davlat xodimlarining oyliklari yuqori va korrupsiyaga qarshi qat'iy chora-tadbirlar bor. Shuning uchun aholida davlatga nisbatan ishonch kuchli.

IRAS (Inland Revenue Authority of Singapore) — xalqaro miqyosda eng samarali solix boshqarmalaridan biri.

IRAS butunlay elektronlashtirilgan xizmatlarga o'tgan. Solix deklaratsiyasi, to'lovlar, auditlar, va hatto yuridik arizalar IRASning MyTax Portal platformasi orqali amalga oshiriladi. Bu orqali:

Solix to'lovchilarning davlat bilan bevosita va tezkor aloqasi ta'minlanadi.

Byurokратиya va korrupsiya imkoniyati yo'qqa chiqariladi.

Har bir to'lov, chegirma, imtiyoz avtomatik tarzda raqamli hujjatlashtiriladi.

Ko'plab solix to'lovchilar uchun IRAS avtomatik ravishda to'ldirilgan deklaratsiyalarni tayyorlaydi — bunda ish beruvchi, bank, moliyaviy tashkilotlardan olingan axborot asos sifatida xizmat qiladi. Bu esa xatoliklar va noqonuniy yashirishlar ehtimolini keskin kamaytiradi.

IRAS OECD tomonidan ishlab chiqilgan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) va CRS (Common Reporting Standard) kabi xalqaro solix ma'lumot almashinuvi va shaffoflik standartlarini to'liq qabul qilgan. Shu bilan birga, Singapur FATF (Financial Action Task Force) standartlariga mos ravishda solix ma'lumotlarini real vaqt rejimida nazorat qiladi.

IRAS doimiy ravishda aholining solix madaniyatini oshirishga qaratilgan kampaniyalar olib boradi, masalan:

"Taxpayer Education Programme";

"My Tax. My Responsibility" shiori ostidagi ijtimoiy roliklar;

Maktablarda soliqni tushuntiruvchi interaktiv dasturlar,

Bu kompaniyalar orqali fuqarolar soliqqa nafaqat majburiyat, balki ijtimoiy mas'uliyat deb qaray boshlashgan.

IRAS nafaqat soliq yig'ish samaradorligini oshirgan, balki Singapur fuqarolarida yuqori ijtimoiy ong, davlatga ishonch, va fuqarolik mas'uliyati hissini shakllantirgan. Bu boshqarma bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun namunaviy model bo'lib xizmat qilishi mumkin.

AQShda soliq yig'uvchanlik ko'rsatkichi nisbatan barqaror (2022-yilda YIMga nisbatan 27.1%), biroq norasmiy iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada mavjud (10% atrofida). IRS (Internal Revenue Service) ma'lumotlariga ko'ra, yillik soliq yo'qotishlar miqdori \$450 milliardga yetishi mumkin.

Ijtimoiy ongdagi farqlilik:

Yuqori daromadli va yuridik shaxslar soliq majburiyatlariga jiddiy yondashadi.

Past daromadli qatlamlarda soliqdan qochish holatlari ko'proq uchraydi — bunga ishsizlik, ijtimoiy nohaqlik va sog'liqni saqlash tizimidagi tengsizlik sabab bo'ladi.

IRS kuchli audit tizimiga ega, biroq siyosiy bosimlar, soliq imtiyozlari va boy qatlamlarning huquqiy yo'llar bilan soliqlardan qochishi — tizimning zaif tomonlaridan biri.

Germaniyada YIMga nisbatan soliq tushumlari 2022-yil holatiga ko'ra 38.1% bo'lib, Yevropa Ittifoqida yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bunda jismoniy shaxs daromad solig'i (max. 45%) va QQS (19%) asosiy rol o'ynaydi.

Soliq to'lash davlatga emas, jamiyatga xizmat qilish sifatida qaraladi.

Makroiqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy yordam tizimlarining sifatli ishlashi fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Davlat fuqaroga hisob beradi:

Har yili "Steuererklärung" (soliq deklaratsiyasi) topshirish orqali har bir fuqaro soliqlarning holati haqida aniq ma'lumot oladi.

Davlat "nima uchun bu soliqlar to'plandi va qanday ishlatilmoqda" degan axborotni e'lon qiladi.

Norvegiyada har bir fuqaro soliq majburiyatlari va davlat xarajatlari haqida muntazam ravishda axborot oladi, natijada soliq yig'uvchanlik darajasi 98% dan yuqori.

Singapurda soliq to'lovchilarga berilgan mukofotlar va soliq tizimidagi shaffoflik orqali fuqarolarning soliqqa sodiqligi oshirilgan.

Koreya Respublikasida onlayn platformalar orqali soliq to'lovchilarning real vaqtda monitoring imkoniyati yaratilgan.

Skandinaviya va Singapurda soliq tizimi fuqarolar uchun shaffof va adolatli ko'rinadi, shuning uchun ijtimoiy ong juda yuqori. Koreyada soliqlarni to'lash — iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish deb qabul qilinadi, aholi o'zini davlat

qurilishining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. O'zbekistonda ijtimoiy ong va jamoatchilik nazorati so'nggi 5 yilda faol rivojlanmoqda, biroq hali ham to'liq shakllanmagan segmentlar mavjud.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, aholining soliq tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish va faol jamoatchilik nazoratini ta'minlash — soliq yig'uvchanlik darajasining asosiy omillaridan biridir.

3-jadval

Jamoatchilik nazorati usullari

Mamlakat	Jamoatchilik nazorati usullari	Natijalar
O'zbekiston	Soliq organlari faoliyati bo'yicha ommaviy eshituvlar, ochiq hisobotlar	Soliq yig'uvchanlikda 18,5% o'sish (2017–2023)
Skandinaviya	Mustaqil soliq ombudsmani, OAV orqali soliq sarflanishi haqida muntazam xabarlar	Aholining soliqqa ishonchi 90% dan yuqori
Koreya Respublikasi	Soliq to'lovchilar assotsiatsiyalari, onlayn shikoyat va takliflar platformasi	Soliq yig'uvchanlikda yuqori barqarorlik, shikoyatlarning 70% tez yechiladi
Singapur	E-soliq portallari, ochiq ma'lumotlar bazalari, soliqlar haqida xalqaro reytingda hisobdorlik	Minimal soliq qochirish holatlari, to'liq elektron monitoring

Skandinaviya va Singapurda jamoatchilik bevosita soliq siyosatini shakllantirishda ishtirok etadi.

Koreya va Singapurda raqamli platformalar orqali shikoyat va monitoring imkoniyati yuqori.

O'zbekistonda ochiq hisobot berish va jamoatchilik eshituvlari endi-endi ommalashmoqda, bu esa fuqarolarni soliqqa nisbatan ijobiyroq qarashga undamoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni umumlashtirish mumkin:

Jamoatchilik nazorati kuchli bo'lsa, soliqlarning shaffof va adolatli yig'ilishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy ongni rivojlantirish fuqarolarning soliqqa nisbatan munosabatini o'zgartirib, majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini oshiradi.

Soliq tizimining shaffofligi va davlatning soliq mablag'laridan oqilona foydalanishi soliq yig'uvchanlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun quyidagi xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Skandinaviya tajribasi: soliq mablag'lari sarflanishi haqida to'liq ochiqlik va jamoatchilikni doimiy xabardor qilish.

Koreya tajribasi: onlayn shikoyat va taklif platformalarini rivojlantirish va jamoatchilik assotsiatsiyalarini kengaytirish.

Singapur tajribasi: soliqlarni to'lashni rag'batlantirish uchun mukofot tizimlari va jamiyatga xizmat qilish motivlarini kuchaytirish.

Shu orqali O'zbekistonda ham soliq yig'uvchanlik darajasi va ijtimoiy ong yanada mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

